

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
MAKTABGACHA TA‘LIM VA BOLALAR SPORTI
YO‘NALISHI BITIRUVCHISI
RAXMONOVA ZULFIYANING

BITIRUV MALAKA ISHI

MAVZU: MAKTABGACHA YOSH DAVRI BOLALARIDA
DIQQAT BARQARORLIGINI TA‘MINLASH VA UNI
KORREKSIYALASH.

Ilmiy raxbar

dots. M.Xalimova.

ANDIJON -2012

Kirish.

1.BOB. Maktabgacha yosh davri bolalarida diqqat barqarorligini ta'minlash va uni korreksiyalashning nazariy taxlili.

1.1. Diqqatning psixologik tavsifi.

1.2. Maktabgacha yosh davri bolalarida diqqatning rivojlanish xususiyatlari

2 BOB. Maktabgacha yosh davri bolalarida diqqat barqarorligini ta'minlashning amaliy asoslari

2.1. Maktabgacha yosh davri bolalarida diqqat barqarorligini psixologik taxlili.

2.2. Diqqatning kuchi va barqarorligini ta'min etadigan shart-sharoitlar.

2.3. Maktabgacha yosh davri bolalarida diqqat barqarorligini ta'minlashda o'yin faoliyatining ahamiyati.

3 BOB. Maktabgacha yosh davri bolalarida diqqat barqarorligini ta'minlashda psixokorreksion ishlarni tashkil etish natijalari.

3.1. Maktabgacha yosh davri bolalarining diqqatini diognostik taxlil qilish va psixokorreksion mashqlarni tashkil etish usullari..

3.2. Dastlabki tajriba natijalarini qayta ishlash.

Xulosa

Tavsiya

Foydalangan adabiyotlar.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligining jahon miqyosida yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning kelajagi bugungi avlodning naqadar o'qimishli, bilimdon, ma'naviy jihatdan barkamol insonlar bo'lib yetishishiga bog'liqdir. Bu o'rinda inson ruhiyati qonunlarini o'rganuvchi psixologiya fanining o'zni benihoya kattadir. Ta'limning barkamol insonni jamiyatimiz uchun to'laqonli, faol shaxs sifatida shakllantirish samaradorligini yanada oshirishda psixologiya ilmi va uning amaliyotda to'g'ri yo'nalishga ega bo'lishi juda zarurdir.

Mavzuning dolzarbligi.

Hurriyat boy ma'naviyat va ruhiyat ilmidan oqilona, odilona va omilkorlik Bilan foydalanishini taqozo etmoqda. Mamlakatimizdagi avjud barcha o'quv yurtlari ta'lim-tarbiyani to'g'ri, ilmiy asosda tashkil etish uchun bu jarayonning o'ziga xos psixologik qonuniyatlarini, uning mexanizmlarini, shuningdek, faol, mustaqil hamda ijobiy tafakkur jarayonini zamonaviy bilimlar asosida tarkib toptirishning samarali usullarini bilishi lozim bo'ladi. Tabiat va jamiyatning qonunlari singari kamol topayotgan inson shaxsi rivojlanishining ham o'z qonunlari mavjud. Yoshning ulg'ayib borishi, psixik jarayonlarining rivojlanishidagi qonuniyatlar, undagi yetakchi omillar hamda inson hayot yo'lining turli bosqichlarida uning shaxsiga xos xususiyatlari hisoblanadi. Ma'lumki shaxs tarkib topish jarayonining psixologik qonuniyatlarini, uning ilmiy asoslarini mukammal bilmay turib, ta'lim va tarbiyaning nazariy hamda amaliy masalalarini muvaffaqiyatli hal etib bo'lmaydi.

Mavzuning ishlanganlik darajasi.

Umumiy psixologiya kursidan bizga ma'lumki, diqqat bu psixik faoliyatning biror bir narsaga qaratilishidir. Hali hanuz olimlarimiz diqqat tushunchasini ta'riflashda bir xillikka erishganlari yo'q. Ba'zi olimlar, ayniqsa chet el olimlari (Godfrua, 1999) ishlarida diqqat idrok bilan bir narsa deb qaralgan bo'lsa, rus olimlari (S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, N.F.Dobrinin, P.Ya.Galperin) ishlarida diqqat alohida psixik jarayon sifatida e'tirof etilib, tadqiqot ob'ekti sifatida qaraladi. K.D.Ushinskiy aytganidek diqqat tashqi dunyodan inson ruhiyatiga kiruvchi barcha narsalar uchun eshik vazifasini o'taydi. Juda ko'p tadqiqotchilar fikricha (A.R.Luriya, Ye.D.Xomskaya, E.G.Simernitskaya, E.G'.G'oziev) diqqat har qanday psixik jarayon dinamikasini ifodalaydi; u har qanday psixik faoliyat - xox oddiy, xox murakkab faoliyat bo'lsin uning tanlanganligini ta'minlab beruvchi omildir. Ba'zi bir olimlar tomonidan diqqat sensor fenomen (ko'rish, eshitish, taktil diqqat) sifatida qaraladi.

Diqqat muammosi psixologiyaning murakkab muammolaridan biri hisoblanadi. Bu muammoni o'rganish tarixida turli davrlar bo'lgan. Nisbatan sal avvalroq davrda diqqat muammosi juda ko'p psixologik maktablar tomonidan inkor etib kelingan (94).

Biroq, bu davrdan keyin diqqatni o'rganishda amaliy zaruriyat yuzaga keldi, chunki harakatlanuvchi ob'ektlarni kuzatish, dispetcherlik xizmati va boshqa sohalar bilan bog'liq

muammolar vujudga keldi. Yana diqqatning xususiyatlari – ko‘lami, darajasi, barqarorligi muammolarini o‘rganish dolzarblashdi.

Diqqatni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish so‘nggi yillarda yanada oshdi. Diqqat muammosiga oid qator monografiyalar e‘lon qilindi. Lekin nazariy jihatdan diqqat muammosini anglashda turlicha qarashlar kuzatiladi.

Olimlar fikricha, bolalik davrida diqqatning rivojlanishida 2 ta bosqich tafovutlanadi. Birinchi bosqichda (6 yoshgacha bo‘lgan davr) miyani aktivlashtiruvchi va qabul qiluvchi sistemalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik shakllanadi. Ikkinchi bosqichda (asosan 8 yoshdan boshlanadi) umumiy aloqadorlikka intellektual soha ham qo‘shiladi. Birinchi bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tish davri 7 yoshga to‘g‘ri keladi. N.F.Dobrinin fikricha, maktabgacha yosh davrida bosh miyaning peshona qismi rivojlanishi bilan shartlangan aktiv ixtiyoriy diqqat elementlari yuzaga kela boshlaydi. Ixtiyoriy diqqat genezisi haqida L.S.Vygotskiy, A.N.Leontevlar alohida to‘xtalib o‘tar ekanlar, diqqatning bu turi rivojlanishida bolaning hayot va faoliyat sharoitlari muhim o‘rin egallashini ta’kidlab o‘tadilar. T.V.Petuxova, L.P.Nabatnikova fikricha, maktabgacha yosh davrida diqqatning barqarorlik xususiyati keskin rivojlanadi.

Bolalarda maktabgacha yosh davri va kichik maktab yoshida oliy asab markazlarining boshqaruvchanlik ta’siri sekin-asta mukammallashib boradi. Buning natijasida diqqat xarakteristikasida ahamiyatga molik o‘zgarishlar yuz beradi, uning barcha xususiyatlari jadal sur’atlarda rivojlanib boradi: ayniqsa diqqat ko‘lami keskin (2 barobar) ortadi, uning barqarorligi oshadi, diqqatni ko‘chirish va taqsimlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Lekin faqatgina 9-10 yoshlarda bolalar xatti-harakatlarning berilgan dasturini mustaqil bajara oladilar.

Diqqatning ijobiy xususiyatlari va uning tashkil qilinishi kichik maktab yoshidagi bolalarni o‘qishdagi o‘zlashtirishida muvaffaqiyatlarini belgilovchi omil hisoblanadi. Yaxshi o‘zlashtiradigan o‘quvchilar diqqat rivojlanishining yuqori ko‘rsatkichlariga ega bo‘ladilar. Bunda maxsus tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turli predmetlarni o‘zlashtirishda diqqatning turli xususiyatlari «hissasi» turlichadir. Masalan, matematika fanini o‘zlashtirishda yetakchi o‘rinni diqqatning ko‘lami, til o‘rganishda diqqatning taqsimlanishi, o‘qishga o‘rgatishda diqqatning barqarorligini egallar ekan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, diqqatning turli xususiyatlarini rivojlantirib, turli fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yuqoriga olib chiqish mumkin. Ammo, bu masalaning murakkab tomoni shundaki, diqqatning turli xususiyatlari bir xilda rivojlanish imkoniyatiga ega emas. Ta’sirga ko‘proq diqqatning ko‘lami moyilroq bo‘lib, u individual xarakterga ega, shu bilan bir vaqtda diqqatning taqsimlanishi va barqarorligi rivojlantirish qiyin bo‘lgan va betartib rivojlanish xususiyatiga ega bo‘lgan tomonlardir. (O.Yu.Yermolaev, 1987).

Diqqatni mashq qilishdagi muvaffaqiyatlar ma'lum ma'noda individual-tipologik xususiyatlar, xususan oliy nerv faoliyati xususiyatlariga ham bog'liq bo'ladi. Shu narsa aniqlanganki, asab sistemasi xususiyatlarining turli birikmalari diqqat xususiyatlari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi yoki aksincha unga rivojlanishda halaqit berishi mumkin. Shuningdek, kuchli va harakatchan asab tizimiga ega bo'lgan shaxslar oson taqsimlanadigan va tez ko'chadigan diqqatga ega ekanlar. Inert va sust asab tizimiga ega bo'lganlar uchun esa nisbatan noturg'un, qiyinchilik bilan taqsimlanadigan va ko'chadigan diqqat xos ekan.

Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, diqqat xususiyatlarining nisbatan kuchsiz rivojlanishi fatal diqqatsizlik omili hisoblanmaydi, chunki har qanday faoliyatni amalga oshirishda diqqatning tashkil etilishi, ya'ni o'z diqqatini boshqarish, uni ma'lum darajada ushlab turish, uning xususiyatlaridan odilona foydalana olish ko'nikmalari muhim rol o'ynaydi.

Tarbiya va ta'lim jarayonida tarbiyachi yoki o'qituvchi o'z faoliyatida har bir mashg'ulot yoki darsda o'quvchilarning xulq-atvorini, ularning o'qish va o'qishdan tashqaridagi bilish faoliyatining xususiyatini kuzatishi mumkin.

Kuzatish metodidan tashqari tarbiyachi yoki o'qituvchilar bolalar diqqatini turli diagnostika usullari yordamida ham tekshirishlari mumkin.

Tarbiya muassasalarida diqqat barqarorligini ta'minlash maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish zarur. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bu xolat ta'minlash o'ta mushkul hisoblanadi. Chunki maktabgacha yosh davri bolalarining diqqati o'ta beqaror bo'ladi. ularning o'yinqaroqligi, psixologik rivojlanishning bosqochma- bosqich rivojlanayotganligi bunga misol bo'la oladi. Keyingi paytda mutaxassislar shunday fikrga keldilarki, diqqatning barqarorligini ta'minlash butun kompleksi belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Asosiy nuqson esa diqqat mexanizmlari va tormozlovchi nazoratning yetishmovchiligi bilan bog'liq. (N.N.Zavadenko, T.Yu.Uspenskaya, 1994).

Biz bolalar psixik rivojlanishida o'tmish allomalarning fikrlarini xam ko'rib o'tishni lozim topdik.

O'tmishda ajdodlarimiz insonning psixologik qonuniyatlarini izchil, atroflicha, muayyan ilmiy yo'nalishda o'rganmagan bo'lsalarda, biroq allomalarning qo'lyozmalarida mazkur holatlarning namoyon bo'lishi, inson kamoloti to'g'risida qimmatli fikrlari hozirgacha yuksak ahamiyat kasb etadi. Abu Nasr Forobiy pedagogika masalalarini va ular bilan bog'liq bo'lgan psixologik, fiziologik muammolarni ijobiy hal etishda insonni har tamonlama yaxlit va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan iborat deb aytadi. Forobiy mavjudotni bilishda ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhi, intellektual va ahloqiy xislatlari, xarakteri, dini, urf-odatlarini, ma'lumoti tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o'z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning

aqli fikri, ruhiy yuksalishining eng yetuk mahsuli bo‘ladi deb ta’kidlanadi. Abu Rayhon Beruniy ta’lim va tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mavqei, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma’noda insonparvarlik va insonshunoslik zahirada yaratilgan. Bilim va tarbiyaning tabiatga uyg‘unlik tamoyillarini mutafakkirining barcha asarlarida kuzatish mumkin. U insonni tabiatning bir qismi deb ta’kidlaydi. Beruniy ta’lim jarayonining tabiatiga chuqur kirib borib, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish asosiga qurilgan o‘qitish tabiatga uyg‘unligini uqtiradi. Beruniy pedagogik ijodida inson va uning baxt–saodati, ta’lim–tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo‘lgan. O‘rta asrda yashab, ijod etgan donishmand, tabobat ilmining dohiysi Abu Ali ibn Sino inson ruhiyati, jang va qalbning birligi, inson organizmining tuzilishi undaga nerv faoliyati va ularning tarmoqlanishi, holatlari haqidagi qimmatli ma’lumotlari hozirga qadar tibbiyotning muhim negizini tashkil etadi. Yusuf Xos Hojibning bosh masalalarida biri komil insonni tarbiyalashdir. Adib o‘z asarlarida eng komil, jamiyatning o‘sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo‘lsa, shu asosda u o‘z tamoyillarini izchil bayon etadi. «Qudatg‘u bilig» («Saodatga yo‘llovchi») asari ta’lim va tarbiya, ma’naviy kamolotning yo‘l–yo‘riqlarini usullarini, chora tadbirlarini o‘zida mujassamlashtirgan, ahloq va odobga doir ma’naviy manbadir. Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», «Xirandnomai Iskandari», «Tuhtaful ahror» va boshqa asarlarida ilm–ma’rifat, ta’lim–tarbiya, kasb–hunar o‘rganishda diqqatning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalangan.

Alisher Navoiyning «Xazoyinul maoniy», «Mahbubul qulub» va boshqa asarlarida yetuk barkamol insonning axloqi, ma’naviyati, o‘zgalarga munosabati, iste’dodi va kobiliyati to‘g‘risida qimmatli mulohazalar yuritilgan. Ana shu psixologik mezonlar ijtimoiy adolat qaror topish uchun muhim ahamiyatga ega ekani takidlangan. Shuningdek, Navoiy asarlarida yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllanishida shaxsnig ruxiy rivojlanishida xar bir psixik bilish jarayonlarining ahamiyatini ko‘rsatib berganlar

Olmon psixologi E.Meterman bolaning maktab davrida uning ruhi va tanasida kechayotgan o‘zgarishlarni to‘liq bilmay turib, unga biror buyruq yoki farmoyish berib bo‘lmaydi deb ta’kidlaydi. Uning fikricha eksperimental pedagogikaning maqsadi Ayni shu muammolarga qaratilmog‘i darkor.

Amerikalik S.Xoll har qanday bola o‘zining individual taraqqiyotida filogenezni ontogeneza takrorlaydi, shu bois bolalarga ibtidoiy instinktlarni og‘riqsiz, yengil kechishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib berish zarur deb aytadi. S.Xoll o‘z tajribalari asosida boy ashyoviy dalillar to‘plab, bola haqida psixologik, fiziologik hamda pedagogik bilimlarning kompleks dasturini yaratish g‘oyasini olg‘a suradi.

Shveysariyalik psixolog E.Klaparez «Bola psixologiyasi va eksperimental pedagogika» asarida qiziqish, motiv, ehtiyojlarning metodologik asoslari, bolalar tafakkurining

xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari, o'xshashlik va tafovutning bola ongida sodir etilishi to'g'risida mulohaza yuritadi.

Fransuz psixologi E.Dyurkgeym-ulg'ayish-kishilarning his-tuyg'ularni o'zlashtirishi ekanligini, shu bois, idrok qilingan tasavvurlar bolaning, ruhiy faoliyatini ifodalashini, bolaning tajriba, an'ana, urf-odatlarini taqlid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik ahamiyatli bo'lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o'rin tutishini uqtiradi.

Yana bir fransuz psixologi P.Janenning fikriga ko'ra, inson psixikasi ijtimoiy munosabatlarga bog'liq, zotan jamiyat va tabiat o'rtasidagi turli aloqalar tizimining shakllanishi insonning ulg'ayishini belgilaydi. U aloqa sifatida hatti-harakatni tushunadi, bu esa kishining atrof-muhitga shaxsiy munosabatidan boshqa narsa emas, albatta. P.Janenning ta'kidlashicha, eng qimmatli, ahamiyatli, ijtimoiy harakat hamkorligidagi faoliyatda o'z ifodasini topadi, shaxslararo tashqi munosabatlar rivojlanishning muhim tamoyili hisoblanadi.

Amerikalik Dj.Bruner shaxsning tarkib topishi bilan ta'lim o'rtasida o'zaro aloqa mavjudligini ta'kidlab, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o'qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvini jadallashtiradi, deb uqtiradi.

Shuningdek, J.Piaje, E.Torndayn, Dj.Uotson, F.Galton, A.Anastazi, A.Bike, T.Simonlar ham bola psixik taraqqiyotida ta'limning mavqeini, ularning aqliy xususiyatlarini, dasturli ta'lim, ko'nikma va malakalarning ahamiyatini, mashqlarning o'rnini ilmiy-amaliy asoslab berishda muhim o'rin egallaydilar. Bu ta'limotlar hozirgi kunda ham o'zining ahamiyatini saqlab qolmoqda. Mazkur muammolar hozirgi zamon fanining metodologik tamoyillari asosida, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning yutuqlari va g'oyalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan holda o'zining munosib o'rnini egallab bormoqda. Bu borada T.Qori-Niyoziy, S.Rajabov, P.I.Ivanov, M.Vohidov, M.G.Davletshin, E.G'oziev, R.Gaynutdinov, B.Qodirov, R.Sunnatova, A.Jabborov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin. Jumladan, bolalarning texnik qobiliyatlari, o'quv motivlari, zamonaviy maktab bolasining psixologik qiyofasi M.G.Davletshin va uning izdoshlari R.Gaynutdinov, A.Jabborov, F.Haydarovlar tomonidan, tafakkur va ta'limni boshqarish muammosi E.G'.G'ozievning tashabbusida, iste'dodli bolalar va kasb tanlash muammosi B.R.Qodirov rahbarligida, bolalarning aqliy faoliyat muammosi R.I.Sunnatovalar tomonidan samarali olib borilmoqda.

Diqqatni o'rganish va uning tashxislash ko'nikmasining falsafiy-metodologik qirralari P.V.Kopnin, K.Ye.Tarasov, V.I. Selixev, Ye.I.Vorobevalarning ishlarida o'z ifodasini topgan. Tashxislash ko'nikmasining psixologik jihatlari, o'quvchining ruhiy-fiziologik o'ziga xosliklari M.K.Akimova, Ye.M.Borisova, Ye.I.Gorbacheva, E.G'oziev, R.Toshimov, R.Qodirov, K.Qodirovlarning ishlarida yoritilgan. Psixodiagnostika muammolari A.N.Leontev, A.V.Zaporojets, D.B.Elkonin, P.Ya.Galperin, N.N.Podyakov, L.A.Venger, T.V.Kudryavsevlar

tomonidan ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Maktabgacha yosh davri bolalarida diqqat barqarorligini ta'minlash va uni korreksilayashning turli usullarini ishlab chiqish va ularni umumlashtirish asosida nazariy va amaliy taxlillar qilish.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalarni belgiladik.

1. Maktabgacha yosh davri bolalarini psixologik xususiyatlarini ob'ektiv va subektiv omillar ta'sirida rivojlanish jarayonini kuzatish.
2. Ilmiy manbaalardagi nazariy qonuniyatlar asosida maktabgacha yosh davri bolalarini bilish jarayonlarining rivojlanishini o'rganish.
3. Maktabgacha yosh davri bolalarini diqqat xususiyatlarini o'rganish
4. Dastlabki tajriba natijalarini qayta ishlash va taxlil qilish.
5. Olingan natijalar asosida bolalarda diqqat barqarorligini ta'minlash va korreksilayash usullarini ishlab chiqish.
6. Umumlashtirilgan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning predmeti. Maktabgacha yosh davri bolalarida diqqat barqarorligini ta'minlash va uni korreksilayashning ob'ektiv shart sharoitlari.

Tadqiqotning ob'ekti. Maktabgacha yosh davri bolalarida diqqat barqarorligining ta'minlanish xolatlari.

Tadqiqot bazasi .Andijon viloyati _____ Tumanidagi _____ № _____, № _____ sonli MTMLaridan 50 nafar tabiyalanuvchi

Tadqiqotning farazi. Belgilangan vazifalarning nazariy va amaliy taxlillarini olib borish maqsadida quyidagi farazlarni keltiramiz:

1. Maktabgacha yosh davri bolalarida diqqat barqarorligini ta'minlanishi, ularning ta'lim tarbiyasidagi o'zgarishlarning ta'siriga bog'liq bo'lish ehtimoli bor.
2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda bilish faolligini oshirish ularning diqqat barqarorligini ta'minlaydi.
3. Maktabgacha yosh davri bolalarida diqqat xususiyatlarini rivojlantirish ularning ob'ektiv shart sharoitlarga munosabatlarini o'zgartirishi va diqqatini to'play olishi uchun imkoniyatlarini oshirishi mumkin.

Tadqiqotning metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov asarlarida ilgari surilgan maktabgacha ta'lim tizimi va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lim tarbiyasiga doir fikrlari, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik, falsafiy-ijtimoiy hamda me'yoriy-huquqiy manbalar Psixologik xizmat to'g'risidagi nizom, Chet el va sharq psixologlarining qarashlari majmuasi.

Tadqiqotning metodlari. analitik obzor, qiyosiy tahlil, anketa, suhbat, savol-javob, intervyu, pedagogik eksperiment, matematik statistika Shaxsni ijtimoiy psixologik himoya qiluvchi metod va psixodiagnostik, psixoprofilaktik, psixokorreksion metodlar. Shuningdek, DDS Spilbelger-Xanin va Liri metodikasini moslashtirilgan varianti. Bundan tashqari individual faoliyat shaklini anqlaydigan – faoliyatga munosabatmetodlari, diqqatni o'rganiuvchi psixologik testlar, korreksion mashqlar, normal emotsional faolligini aniqlaydigan metodlar. Bundan tashqari suhbat, anketa, shaxsiy varaqalarini o'rganish va boshqa metodlardan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o'z faoliyatini baholash va tashxislash ko'nikmalarini shakllantirish asosida ularning diqqat barqarorligini ta'minlanishini nazariy-amaliy asoslarini aniqlash orqali diqqat barqarorligini ta'minlash ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb psixologik muammo ekanligi asoslandi.

2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning diqqat barqarorligini ta'minlash va korreksiyalash ularning psixologik imkoniyatlari belgilandi.asosilarini

3. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning diqqat barqarorligini ta'minlash va korreksiyalashga yo'naltirilgan ta'lim tarbiya jarayonining mazmuni, vositalari, usul va metodlari tanlandi.

4. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning diqqat barqarorligini ta'minlash va korreksiyalashga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va ularning samaradorlik darajasi aniqlandi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida psixologiya fani maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning diqqat barqarorligini ta'minlash va korreksiyalashga yo'naltirilgan ilmiy-psixologik qarashlar, nazariy yondashuvlarga ega bo'ldi, shuningdek, Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning diqqat barqarorligini ta'minlash va korreksiyalashga yo'naltirilgan psixologik jarayonlarning psixologik xususiyatlari, mazmuni, vositalari, usul va metodlari bilan boyitildi.

Qaysikim, ushbu nazariy yondashuvlar va metodikadan oliy o'quv yurtlarining pedagogika psixologiya ta'lim yo'nalishlarida, o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari hamda MTM xodimlari unumli foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Tadqiqotning tuzilishi. Bitiruv malaka ishi 3 bob, 6 ta bo'lim xulosa, tavsiya va foydalanilgan adabiyotlardan iborat.Tadqiqot natijalari asosidagi vositalar ilovalarda keltirilgan.

1.BOB. Maktabgacha yosh davri bolalarida diqqat barqarorligini ta'minlash va uni korreksilashning nazariy taxlili.

1.1. Diqqatning psixologik tavsifi.

Inson psixikasi taraqqiyotining asosiy xususiyatlarini biologik qonunlar - irsiyat bilan tushuntirish nazariy jihatdan xatodir. U amalda katta qiyinchiliklarga olib keladi. Chunki bu yerda tarbiyachining roli pasaytiriladi. Yosh va pedagogik-psixologiya inson psixik taraqqiyoti qonunlari ijtimoiy bog'langan taraqqiyot jarayoni bola tarbiyasi va xayot sharoitlarining murakkab majmui bilan belgilanadi, degan fikrlarga tayanadi. Bunda taraqqiyotning biologik sharoitlarining rivojlanishida neyrofiziologik xususiyatlarning psixika taraqqiyotida roli qanday degan savol tug'iladi. Inson psixik faoliyati juda murakkabdir. Uning xususiyatlari bola tarbiyasi va xayotiga bog'liqdir. So'z mantiqiy xotira, mavxum tafakkur, predmetlarni idrok qilish va boshqalar, oliy psixik funksiyalar irsiy biologik yo'l bilan uzatilmaydi, mustaxkamlanmaydi. Bu tarixiy taraqqiyot jarayonida ularni qayta qurish, takomillashtirish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonida bola psixik taraqqiyotining asosiy tomonini faoliyat usullari va bilimlarini murakkablashtirish tashkil etadi. hozirgi vaqtda ko'p tadqiqotchilar ta'lim mazmunini o'zgartirib, ya'ni bolaga beriladigan bilimlarni va faoliyat usullarini o'zgartirib, bola taraqqiyotini tubdan o'zgartirish mumkinligini isbotlaydilar. Bolalarning bildish jarayonlari ichida diqqat alohida ahamiyatga ega. Diqqat alohida bilish jarayoni emas, lekin u barcha bilish jarayonlari tarkibida mavjuddir.

Diqqat bu ongning bir nuqtaga to'plab, muayyan bir ob'ektga aktiv qaratilishini aytamiz; biz o'z faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o'zimizning qilgan ishlarimiz, uy va fikrlarimiz diqqatning ob'ekti bo'la oladi. Diqqat paytida ongning bir nuqtaga to'planishi ong doirasining torayishidan iboratdir; bunda go'yoki ong doirasi anchagina tig'izlanadi. Ana shunday torayish va tormozlanish tufayli ong doirasi juda ham yorqinlashadi. Ongning eng tormozlangan va binobarin eng yorqin nuqtasi diqqatning fokusi (ya'ni markazi) deb ataladi. Ana shu fokusga tushgan barcha narsalar (idrok qilinayotgan predmetlar, tasavvurlar, fikrlar) juda to'la, yorqin hamda juda aniq aks ettiriladi.

Diqqatga hamma vaqt u yoki bu darajadagi faollik xosdir. Bunday faollik ongning bir nuqtaga to'planishining kuchayishi va ma'lum vaqt mobaynida diqqat qaratilgan narsaga ongning aktiv yo'naltirilishini saqlab turishdan iboratdir.

Diqqatimiz qaratilgan ob'ektlar ongimizning to'plangan «zonasida» juda aniqlik va yaqqollik bilan aks ettiriladi. Bu yerda yana shuni ham nazarda tutish kerakki, diqqat – idrok, xotira, xayol, tafakkur va nutq singari alohida psixik protsess emas. Diqqat hamma psixik jarayonlarda ko'rinadi. Biz «shunchaki» diqqatli bo'la olmaymiz, balki biz diqqat bilan idrok qilamiz (qaraymiz, eshitamiz), diqqat bilan esda olib qolamiz, o'ylaymiz, diqqat bilan muhokama

yuritimiz, gaplashamiz. Diqqat aqliy jarayonlarning sifatini ta'minlaydigan ichki faollikdir. Diqqat har qanday faoliyatning zaruriy shartidir. Mana shu hol fransuz olimlaridan Kyuveni o'z zamonasida geniallikni chidamli diqqat deb ta'riflashga undagan edi. Masalan, u Nyutonning genialligi diqqatining kuchi va barqarorligidadir, deb ko'rsatadi. Nyutonning o'zi «Siz butun dunyo tortilish qonunini ochishga nima tufayli muyassar bo'ldingiz» deb berilgan savolga – «Fikrizikrim doimo shu masalaga qaratilganligidan muyassar bo'ldim», deb javob bergan.

Albatta, diqqatga bunday baho berish uning ahamiyatini haddan tashqari oshirib ko'rsatishdir. Lekin bu baho diqqatning inson faoliyatining barcha turlari uchun ahamiyati katta ekanligini ko'rsatib beradi. Darhaqiqat, o'tin yorish, yer chopish kabi eng oddiy ishlarni ham, mashinalar bilan ishlash, ilmiy tekshirishlar olib borish kabi eng murakkab ishlarni esa diqqatning ishtirokisiz bajarib bo'lmaydi.

Diqqat o'qish ishining ham zaruriy shartidir. Bolalarning dars materiallarini muvaffaqiyat bilan o'zlashtirishlari, dastavval diqqatning mavjud bo'lishiga bog'liqdir. K.D.Ushinskiyning aytishicha: «Diqqat ruhiy hayotimizning, shunday yagona bir eshigidirki, ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o'tib kiradi». (Pedagogika kursi programmasining proekti. «Sovet pedagogikasi», 1938 y. №5, 109-bet).

Ayrim bolalarda uchraydigan o'zlashtira olmaslik holatining sababini avvalo ular diqqatining yetarli emasligidan qidirish kerak. Xotiraning bo'shligi, o'quv materiallarini o'zlashtirishning bo'shligi, asosan, diqqatning bo'shligidan kelib chiqadi.

Mana shuning uchun ham pedagog o'qitish ishida yuksak muvaffaqiyatga erishishni istar ekan, bolalar diqqatini va, xususan, eng barqaror va eng kuchli diqqatini uyushtirish hamda tarbiyalash haqida jon kuydirishi lozim. Diqqat shaxsning kundalik faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ruhiy xolatdir. Diqqat har qanday shaxs uchun va kishi faoliyatining barcha turlari uchun eng zarur omillardandir.

Diqqat predmetlar va voqea-hodisalar idrok qilinayotgan vaqtda shaxs zarur narsalarni ong doirasidan ajratib olishi, zarur bo'lmaganlarini ong doirasidan chetda qoldirilishi qo'zgovchilar orasidan saralash faoliyatiga imkon beruvchi g'oyat qudratli ruhiy yo'nalishdir. Shaxsning diqqati qaratilgan, ongi yo'naltirilgan predmet «figura», uni qurshab turgan boshqa barcha xollar esa "fon" tarzida idrok qilinadi. Jiddiy diqqat jarayonida (berilib mul'film ko'rish, ertak tinglash, rasm chizish va x.k.) odamda, bu holatning tashqi ifodalari namoyon bo'ladi.

Shaxs diqqati qaratilgan narsani tuliq idrok qilish uchun o'zini unga muvofiqlashtiradi - tug'ri o'tirish, yaxshi eshitish halaqit beruvchi narsalarni uloqtirish kabi xarakatlarni bajaradi. Ortiqcha xarakatlarni to'xtatib, jiddiy diqqat holatini saqlash tadbirlarini ro'yobga chiqaradi, diqqatning tashqi ifodasiga xos bo'lgan xarakatlarni ko'rsatadi. Diqqat odamning mimikasi, pantomimikasi va xatti-xarakatlarida ifodalanadi.

Diqqat tez o'tuvchan, ko'chuvchanligi bilan psixik xolatlarning maxsus tomoni hisoblanadi. Shaxsning kundalik faoliyat davomida bajaradigan ishlarining hammasi diqqat ob'ektidir. Diqqatsiz shaxs birorta yumushni sifatli, maqsadga muvofiq ravishda ro'yobga chiqara olmaydi.

Diqqat sezgi, idrok, xotira, xayol kabi alohida psixik protsess emas. Ammo u psixik protsesslarning barchasida faol ishtirok etadi. Bu jihatdan diqqat aqliy faoliyatning maxsuldorligini ta'minlaydigan ruhiy yoki ichki faollikdir.

Diqqat bilan idrok qilinmagan narsa va hodisalar odam ongida aniq va yaqqol aks etadi. Shuning uchun ham mashhur chechma psixologi Yan Amos Kamenskiy diqqatni yorug'lik bilan tenglashtiradi. Uning fikricha, diqqat-«ong nuri». ya'ni o'qish ishining yorug'ligidir, bolalar diqqat orqaligina hamma narsani idrok qiladilar.

Xar qanday narsa yoki hodisani to'g'ri o'rganish uchun diqqat zaruriy shartdir. Bu haqda rus psixologi K.D.Ushinskiy quyidagicha yozgan edi: «Diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona bir eshigidirki, ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o'tib kiradi. Bolani shu eshikni doimo ochiq tutishga o'rgatish eng muhim vazifalardandir, chunki bu o'qishning muvaffaqiyatini ta'min etadigan shartdir».

Shaxs istagan narsani to'g'ri va to'liq idrok qilmoqchi bo'lsa, birinchi navbatda o'sha narsaga o'z diqqatini qaratmoqchi lozim. Yan Amos Kamenskiy iborasi bilan aytganda, faqat boshqalar tinglaganda, diqqat qilganligini gapirish lozim. Aks holda fikr behuda ketadi retsipient (eshituvchi) tomonidan o'zlashtirilmaydi.

Diqqat jarayonida ong doirasi torayadi va nihoyatda yorqinlashadi. Ongning bir ob'ektga nihoyatda tig'iz to'plangan yorqin nuqtasi diqqatning fokusi yoki markazi deb ataladi. Ana shu fokusga tushgan predmetlar odam tomonidan to'g'ri va to'liq seziladi va idrok qilinadi.

Ong bir nuqtaga tig'iz to'planganda shu nuqtaga aloqador bo'lmagan barcha narsalar ong doirasidan chetda qoladi.

Diqqat tashqi olamdagi barcha predmetlarning odam miyasida to'la va ravshan aks etishini taminlaydi. Bu jihatdan diqqat boshqa psixik protsesslardan ajralgan holda sodir bo'lmaydi. Shuning uchun diqqat odam ruhiy hayotining ma'lum tomoni boshqa psixik protsesslarning maxsus xossasidir. Tabiiyki, odam tetik holatda bo'lganda hamma vaqt faoliyatning biror turi bilan band bo'ladi, albatta uning diqqati biror holga yoki predmetga qaratilgan bo'ladi. Demak, yuqoridagi fikrlarga asoslanib diqqat jarayoniga psixologik ta'rif beramiz

Diqqatning ta'rifi quyidagichadir: "Kishi ongining bir markazga yoki muayyan bir nuqtaga ma'lum muddat mobaynida to'planishidan iborat bo'lgan ruhiy jarayon diqqat deb aytiladi". Diqqat odam ruhiy faoliyatining ma'lum predmetga yo'naltirilishi va to'planishiga ko'ra quyidagicha turlarga bo'linadi :

1. Diqqatning faolligiga qarab :

- a) ixtiyoriy diqqat;
- b) ixtiyorsiz diqqat;
- v) ixtiyoriydan so‘nggi diqqat.

2. Diqqatning ob’ektiga qarab :

- a) tashqi diqqat,
- b) ichki diqqat.

3. Diqqatning faoliyat turlariga qarab:

- a) individual diqqat;
- b) gurux diqqati;
- v) jamoaviy diqqat;

Ixtiyoriy diqqat shaxsning o‘z diqqatini ongli ravishda bir markazga to‘plashi yoki biror bir predmetga jalb etishidir. Diqqatning bu turi amalda biror bir narsani idrok qilish maqsadi, niyati tufayli vujudga keladi. Ixtiyoriy diqqat oldindan ko‘zlangan diqqatdir.

Ixtiyoriy diqqat jarayonida shaxs o‘z ongini bir nuqtaga to‘plashga qiynaladi azob chekadi, diqqatni chalg‘ituvchi shartlarga qarshi kurashadi,. irodaviy kuch sarflaydi. Busiz diqqat qaratilgan maqsadni ro‘yobga chiqarish mumkin emas.

Ixtiyoriy diqqatning shaxs faoliyatidagi roli juda kattadir. Amaliy faoliyatda biror yumushni bajarishga zo‘r beradigan organlardan tashqari, butun mehnat davomida maqsadga muvofiq diqqat orqali ifodalangan iroda bo‘lishi shart. Shu bilan birga mehnat o‘z mazmuni va bajarish usuli bilan shaxsni qanchalik ham jalb qilsa va binobarin jismoniy va intellektual kuchlarning o‘yini tarzidagi bunday mehnatdan shaxs qanchalik oz rohatlansa maqsadga muvofiq diqqat orqali ifodalangan iroda bo‘lishi yanada ko‘proq shartlar hisoblanadi. Ma’ruza yozish jarayonida talaba o‘z diqqatini leksiyaning to‘g‘ri eshitishga, uni grammatik qoidalar asosida daftarga yozishga qaratadi. Talabaning charchog‘i osha boshlagan sayin diqqati ham chalg‘iy boshlaydi. Bu vaqtda iroda kuchi yordamga keladi va diqqatining barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ixtiyoriydan so‘nggi diqqat odamda ma’lum irodaviy zo‘r berish tufayli paydo bo‘ladi va ixtiyoriy diqqat o‘rnini egallaydi. Xuddi ixtiyoriy diqqatda bo‘lgani singari bunda ham anglangan maqsad bo‘ladi va bu maqsad shaxs ongini bir nuqtaga to‘playdi. Talabaning o‘quv faoliyatida ixtiyoriydan so‘nggi diqqatning ahamiyati katta. Talaba o‘quv faoliyatini boshlashda ixtiyoriy diqqatni ishga soladi. Keyin u mavzuga qiziqib ketadi va diqqati chalg‘iydi qunt bilan dars tayyorlaydi davom ettiradi. Bu talabaning ixtiyoriydan keyingi diqqati natijasidir.

Ixtiyoriy diqqatni hosil qilish va saqlab turish uchun odam o‘z faoliyatiga ongli munosabatda bo‘lishi zarur. Ammo, odamda ongli munosabat ham, maqsad ham bo‘lishiga qaramay u maqsadga erishish zarurligini bilib tursa ham o‘z diqqatini bir nuqtaga to‘plab ishlay olmaydigan

hollari ham bor. Bunday hol ayniqsa irodasi zaif odamlarda ko'roq uchraydi. Chunki ular diqqat bilan ishlash uchun zarur bo'lgan irodaviy zo'r berishga yaxshi odatlanmagan bo'ladilar.

Shaxsning o'ziga bog'liq bo'lmagan va muayyan maqsad ko'zlagan holda ongning bir nuqtaga to'planishi yoki biror predmetga qaratilishi ixtiyorsiz diqqatdir. Ixtiyorsiz diqqatda ixtiyoriy diqqatda bo'lganidek, odam o'z ongini malum muddat mobaynida biror nuqgaga jalb etishga kuch sarf qilmaydi.

Ixtiyorsiz diqqat jarayonida irodaviy zo'r berish u yoqda tursin, shaxs biror bir narsani ko'rit yoki eshitishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi. Shuning uchun diqqatning bu turi maqsadsiz diqqat hamdir.

Ixtiyoriy diqqat shaxsning turmush tajribasi faoliyati bilan bog'liq xolda uning ehtiyoj va qiziqishlari asosida, ma'lum hissiy xolatlarni paydo qiluvchi ta'sirotlar natijasida vujudga keladi.

Diqqat bir qancha xususiyatlarga ega bo'lib, ulardan asosiylari – diqqatning ko'chuvchanligi, bo'linishi, ko'lami, kuchi va barqarorligidir.

Bu xususiyatlarning qanchalik yaqqol ifodalanishiga qarab, har turli faoliyat jarayonida ayrim odamlar diqqatining ma'lum bir (ijobiy yoki salbiy) sifatleri belgilanadi.

O'zining kattaligi, ravshanligi, rang va xususiyatlari bilan ko'zga yaqqol tashlanadigan materialini bolaning idrok qilishi asosan ixtiyorsiz diqqat asosida o'tadi. Tarbiyachining qiziqarli hikoyasini bolalar oson qabul qiladilar, ixtiyorsiz ravishda uni berilib tinglaydilar.

Maqsadga muvofiq tarzda diqqatni biror nuqtada yoki predmetga tuta olmaslik diqqatning beqarorligidir. Diqqatning beqarorligi ko'pincha yoshlarda uchraydi. Yoshlarda individual sifatlar mustahkam qaror topmagan bo'lganligi uchun ularning diqqati tez chalg'uvchan xarakterga ega bo'ladi.

Odam faoliyatining tez qirraliligi diqqatning turlicha ko'lamini talab qiladi. Diqqatning ko'lami (doirasi) bir vaqtda unga singishi mumkin bo'lgan narsalar soni bilan belgilanadi. Ko'lami jixatidan diqqat keng yoki tor bo'ladi. Diqqat ko'laminig keng bo'lishi shaxsning narsa va predmetlarni yaxshi tushuna bilishi uchun muhimdir.

Odamlar o'z diqqatlarining ko'lami jixatidan bir-birlaridan farq qiladilar. Ayrim shaxslarda diqqat ko'lami keng, ayrimlarida esa tor bo'ladi. Umuman olganda, odamning diqqat ko'lami bir vaqtda idrokiga sig'ishi mumkin bo'lgan narsalar miqdori yoki doirasi bilan belgilanadi. Idrok jarayonida odam diqqati qaratiladigan narsalarning qanchasi ong doirasiga sig'ishi diqqat ko'lami hisoblanadi. Masalan, bog'chadan tashqariga chiqqan tarbiyalanuvchilarning diqqatini oladigan bo'lsak, tarbiyachining xar bir gapi va ko'rsatmasi bola diqqat markazida turishini tarbiyachi ta'kidlab boradi.

Kishi diqqatining bir vaqtning o'zida turli nuqtalarga jalb etilishi uning bo'linishidir. Juda ko'p hollarda shaxs o'z diqqatini bir narsaga emas, bir necha predmetga qaratadi, bir vaqtning o'zida bir qancha ishni baravariga bajaradi.

Diqqatni zarur hollarda talab qilingan sohalarga to'g'ri taqsimlay olish har bir shaxsdan shu sohaga oid maxsus malakani talab qiladi. Turli kasb egalarini va tarbiyalanuvchilarning qiziqishlariga xos psixik xususiyatlari kabi xolatlarning har qaysisi diqqatning bir necha ob'ektlarga taqsimlanishini taqozo etadi. Agar diqqat faqat bitta narsa ustida to'plangan bo'lsa, bunday diqqat to'plangan diqqat- deb yuritiladi. Agar odam diqqati bir vaqtda bir qancha narsalarga qaratilsa, bu hol taqsimlangan diqqat deb yuritiladi. Aslida ayni bir vaqtning o'zida diqqatning bir qancha narsalarga qaratilishi uning bir predmetdan ikkinchi predmetga nihoyatda tezlik bilan ko'chishidir. Chunki, diqqatning bo'linishi talab qilingan paytda u bir holdan ikkinchi holga shu qadar tez ko'chadiki, odam uni payqay olmaydi.

Amaliy nuqtai nazardan diqqat bo'linuvchanligining juda katta ahamiyati bor. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar diqqati juda bo'linuvchanligi bilan xarakterlanadi. Buni tarbiya jarayonda ham yaqqol ko'rish mumkin. Bolalar mashg'ulotlar jarayonida o'z diqqatini uni to'g'ri eshitish, to'g'ri yozish, o'zini talab darajasida tuta bilish kabi xollarga qaratish orqali undan kutilgan maqsadga erishadi. Bolalardagi diqqat bo'linuvchanligi, ularning qiziqishlarining qay darajada shakllanganligiga ham bog'liqdir. Ayrim bolalarning og'ir bosiq, indamasligi, injiqliklari ularning psixik jarayonlarini ,ayniqsa diqqat barqarorligini ta'minlash bir muncha qiyin kechadi. Ularning diqqat barqarorligini ta'minlash uchun qiziqishlariga mos ta'lim, tarbiya usullaridan amalda doimiy qo'llanilishi kutilgan samarani beradi. Ularning vaziyatlarni , xolatlarni, tushunchalarni to'g'ri idrok qilishlari uchun albatta, diqqat barqarorligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Demak, diqqatning xususiyatlari odam faoliyatining barcha sohalari uchun juda zarur shartdir. Diqqat xususiyatlari tufayli odam mehnat sharoitiga moslashadi, undagi muhitga ta'sir qiladi va o'z niyatlarini amalga oshiradi.

1.2. Maktabgacha yosh davri bolalarining diqqatning rivojlanish xususiyatlari.

Maktabgacha yosh davri bolalarining psixologik xususiyatlarini o'rganar ekanmiz, avvalo biz ularning ilmiy nazariy jihatlariga ham bir nazar tashlaymiz. Yani shaxsning psixik rivojlanishi va shakllanishidagi o'zgarishlar, ularning psixologi qonuniyati bilan asoslanishidagi qarama qarshi o'qimlarning qarashlari, shuningdek, bu fakrlarning fan psixologiyasiga qo'shgan xizmatlarini nazariy taxlil qilgan xolda bolalardagi psixik shakllanishning o'ziga xos xususiyatlarini analiz qilamiz. Umumlashtirilgan xulosalar asosida bolalardagi diqqat jarayonining barqarorligini ta'minlash usullarini ishlab chiqamiz.

Psixik rivojlanish va bu o'zgarishlarga sabab bo'ladigan kuchlar o'rtasidagi munosabat qonunlarini o'rganish psixologiyaning muhim va dolzarb muammolaridan biri ekanligi ta'kidlab o'tish joizdir.

Inson shaxsning psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, bola shaxsiga psixologik, pedagogik jihatdan ta'sir ko'rsatishning zarur shartidir. Inson – biosotsial mavjudotdir. Uning birligi, bir tomondan, kishining psixik, tug'ma ravishda tashkil topgan xususiyalar (masalan, ko'rish yoki eshitish sezgilarning, shuningdek, oliy nerv tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari), ikkinchi tomondan esa faoliyatning ongli sub'ekt va ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida uning xulq-atvor (masalan, ahloqiy odatlar) xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Xo'sh odam psixikasi va hatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan bu xususiyatlarni nimalar sirasiga kiritish mumkin? Inson psixikasining tabiati biologikmi yoki inqilobiy xarakterga egami?

Inson shaxsining tarkib topishi va psixik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning muammosi o'z mohiyati jihatidan g'oyaviy xarakterga ega. Shu bois bu masalani hal qilishda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli oqimlar, yo'nalishlar maydonga kelgan. Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishda maydonga kelgan birinchi oqim biogenetik konsepsiya, nazariya bo'lsa, ikkinchi oqim sotsiogenetik konsepsiyadir.

Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishga intiluvchi biogenetik oqim XIX asrning ikkinchi yarmida maydonga kelgan. Bola psixik xususiyatlarining tug'ma tabiati haqidagi ta'limot shu vaqtga qadar aksariyat psixologiya maktablarining asosini tashkil etib kelmoqda. Mazkur ta'limot inson psixikasining barcha umumiy va individual xususiyatlari tabiat tomonidan belgilangan, uning biologik tuzilishiga tenglashtirilgandir, psixik rivojlanish esa, irsiy yo'l bilan azaldan belgilanib, inson organizmiga joylashtirilgan shu xususiyatlarning maromiga yetilish jarayonidan iborat deb ta'kidlaydi. Ma'lumki, nasliy xususiyatlar tug'ma yo'l bilan nasldan naslga tayyor holda beriladi, biroq shunday bo'lishiga qaramay bu oqim namoyondalari inson shaxsi va uning barcha xususiyatlari «ichki qonunlar» asosida, ya'ni nasliy xususiyatlar negizida maydonga keladigan narsa, biologik olimlarga bog'liqdir, deb ta'kidlaydilar.

Biogenetik ta'limot, inson qobiliyatlarining rivojlanish darajasi (chunonchi, imkoniyatlarning chegarasi, uning eng yuksak nuqtasi) taqdir tomonidan belgilanib qo'yilganligini, bola imkoniyatlari va qobiliyatlarini maxsus testlar yordamida aniqlab, undan so'ng ta'lim jarayonini uning irsiyat tomonidan belgilangan taraqqiyot darajasiga moslashtirish, ularning aqliy iste'dod darajalariga qarab turli mavqedagi maktablarda tahsil olishi zarur deb ta'kidlashadi.

Chunonchi, bu yo'nalish tarafdorlaridan, amerikalik psixolog E.Pyurndayx bolalarning «tabiiy kuchlari» va «tug'ma mayllar»ini psixik rivojlanishning yetakchi omili qilib ko'rsatib, muhitning, ta'lim-tarbiyaning ta'siri-ikkinchi darajalidir, deb aytadi.

Avstraliyalik psixolog K.Byuler bolalarning faqat aqliy taraqqiyotigina emas, balki ahloqiy rivojlanishi ham nasliy tomondan belgilangandir, deb ta'kidlaydi.

Amerikalik pedagog va psixolog Dj.Dyui-inson tabiatini o'zgartirib bo'lmaydi, odam irsiyat vositasida hosil qilgan ehtiyojlari va psixik xususiyatlari Bilan tug'iladi. Bu ehtiyojlar va psixik xususiyatlar tarbiya jarayonida namoyon bo'lib, ba'zida o'zgarishi, tarbiyaning esa miqdorini belgilab beruvchi mezondir, deb hisoblaydi.

Venalik vrach-psixolog Z.Freyd mazkur oqim namoyondasi sifatida shaxsning faolligini, uni harakatga keltiruvchi kuchlarni quyidagi tarzda tushuntirishga intiladi. Odam o'zining qadimiy hayvon tariqasidagi avlod-ajdodlaridan nasliy yo'l bilan o'tgan instinktiv mayllarning namoyon bo'lishi tufayli faoldir. Z.Freydning fikriga ko'ra, instinktiv mayllar asosan jinsiy instinktlar shaklida namoyon bo'ladi. Z.Freyd, shaxsning faolligini dastavval jinsiy mayllar bilan bog'laydi. Biroq instinktiv mayllar jamiyatda xudi hayvonot olamidagidek erkin namoyon bo'lavermaydi. Jamiyatdagi jamoa hayoti odamni, undagi mavjud instinktiv mayllarni (ya'ni jinsiy mayllarni) juda ko'p jihatdan cheklab qo'yadi. Oqibatda odam o'zining ko'p instinktlari va mayllarini bosishga, tormozlashga majbur bo'ladi. Uning ta'limotiga ko'ra, tormozlangan instinkt va mayllar yo'qolib ketmaydi, balki bizga noma'lum bo'lgan ongsizlik darajasiga o'tkazilib yuboriladi. Ongsizlik darajasidagi bunday instinktlar va mayllar har turli «komplekslar»ga birlashadilar, go'yo inson shaxsi faolligining haqiqiy sababi Ayni shu «komplekslar»ning namoyon bo'lishidir. Z.Freydning ta'limotidan, uning ochiqdan-ochiq biologizotorlik targ'ibotchisi ekanligini, inson uaxsining faolligini jinsiy mayllardan iborat ekanligi haqidagi nazariyasi ilmiy asosga ega emasligini e'tirof etish mumkin.

Inson shaxsining tarkib topishini o'rganish davomida yuzaga kelgan Yana bir ta'limot-sotsiogenetik konsepsiya-qobiliyatlarining taraqqiyotini faqat tevarak-atrofdagi muhitning ta'siri bilan tushuntiradi. Bu yo'nalish o'z zamonasi uchun ilg'or hisoblangan XVIII asr fransuz olimi K.Gelvetsiy ta'limotidan boshlangan. K.Gelvetsiyning ta'limotiga ko'ra, barcha odamlar aqliy va ahloqiy rivojlanishi uchun tug'ilishdanoq mutlaqo bir xil tabiiy imkoniyatga ega bo'ladilar. Shuning uchun odamlarning psixik xususiyatlaridagi farq faqatgina muhit va tarbiyaning turlicha

ta'sir qilishi bilan vujudga keladi, deb tushuntiriladi. Bu nazariya odamlarning psixik, ruhiy, oqibatda ijtimoiy tengsizligi ularning tug'ma xususiyatlari degan ta'limotga qarshi qaratilgan edi. Bu nazariyaning xorijiy mamlakatlardagi hozirgi turli namoyondalari psixikaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning g'oyat darajada muhim roli borligini e'tirof etadilar.

Inson shaxsining tarkib topishini o'rganish davomida yuzaga kelgan sotsiogenetik konsepsiya fanda eksperimentlarning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ma'lumki XYII asrning oxiri va XYIII asrning boshlarida tabiiy fanlar jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi. O'sha paytda hammaning diqqat-e'tibori mo'jizakor tajribaga qaratilgan edi. Bu hodisa inson shaxsining tarkib topishi masalasiga ham ta'sir qilmay qolmaydi.

Sotsiogenetik konsepsiya namoyondalari insonning butun taraqqiyoti, shu jumladan shaxsiy xususiyatlarning tarkib topishi asosan tajribaga bog'liqdir. Bu nazariyada shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlarni jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish usullari, atrofidagi odamlar bilan o'zaro munosabat vositalari asosida tushuntiriladi. Bu ta'limotga ko'ra inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

Chunonchi, angliyalik olim Djon Lokk dunyoga kelgan yangi chaqaloq bolaning ruhini top-toza doskaga, taxtaga o'xshatadi. Uning fikricha, bolaning top-toza taxta tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo katta odamlar ixtiyorlaridadir. Shuning uchun bolaning qanday odam bo'lib yetishishi, ya'ni unda qanday shaxsiy fazilatlarning tarkib topishi bola hayotdan oladigan tajribaga, o'zgaralar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog'liqdir, deb ta'kidlaydi.

Bu tahlil etgan har ikkala yo'nalishning namoyondalari, o'z manfaatlarining tashqi jihatdan bir-biriga qarama-qarshi bo'lishiga qaramay, insonning psixik xussiyatlarini yo nasliy, biologik omillar ta'siri ostida, yoki o'zgaras muhit ta'sirida avvaldan belgilangan va o'zgaras narsa, deb e'tirof etadilar.

Ma'lumki odam shaxs sifatida muntazam qandaydir faoliyatda tarkib topib boradi, rivojlanadi, uning faolligi namoyon bo'ladi. Agarda hayvonlar tevarak-atrofdagi tashqi muhitga passiv moslashib, hayot faoliyatlarida tabiatdagi, ya'ni tashqi muhitdagi tayyor narsalardan foydalansalar, odam esa tevarak-atrofdagi tashqi muhitga faol ta'sir ko'rsatib, uni o'z irodasiga bo'ysundiradi, hamda o'zgartirib, o'z ehtiyojlarini qondirishga xizmat qildiradi.

Kuzatishlar jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldi-ki, odamdagi tug'ma, irsiy mexanizmlari uning, psixik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi-yu, biroq uning mazmunini ham, shaxsiy fazilatlarni ham belgilab Bera olmaydi. Ta'kidlash zarurki, muhit ham bola psixikasini rivojlantirishda muayyan rol o'ynaydi. Faqat buning uchun bolani o'qitayotgan kishilarning ta'siri natijasida bola ana shu muhitni faol ravishda o'rganib olishi, tabiiydir.

Bola tug'ilganidan 1 yoshgacha bo'lgan davrda jismoniy va psixologik jihatdan juda tez o'sadi. Bu davrda bola ko'p jihatdan ongsiz bo'lib kattalarning doimiy va to'g'ri parvarishiga

muxtoj bo‘ladi. Bolaning kelgusida sog‘lom bo‘lishi va psixik jihatdan normal o‘ssishi uning shu davrda to‘g‘ri parvarish qilinishiga bog‘liq.

Bu yoshda bolaning nerv sistemasi ham tez o‘sib boradi - miyaning og‘irligi 350 gr-dan 900 gr boradi, (1 yoshdan 3 yoshgacha 200 ortadi) boshni tik tutishi, narsalarni paypaslab ushlab, turishga urinish, emaklash, faoliyatlari vujudga keladi. Bir qator analizatorlari paydo bo‘lib, normal ishlay boshlaydi. Ko‘rish va eshitish analizatorlari bir muncha murakkab yo‘l bilan rivojlana boshlaydi.

Bola hayotining 2-xaftasida sekin xarakat qilayotgan narsalarni payqaydi, 3 oylikda yarqiroq narsalarga tikilib qaraydi, 3-4 oylik bola onasini taniydi- tafakkur elementlari paydo bo‘lyapti - onasini boshqalarga taqqoslayapti. 6-7 oylik bola oti aytilgan narsani ko‘rsatadi, xarakat xotirasi paydo bo‘ladi.

Bola bilan muloyim gaplashib tursak, unda faollik, kattalarga talpinish reaksiyasi yuzaga keladi-«jonlanish kompleksi»yuzaga keladi.Bola o‘z atrofidagi barcha narsalarga diqqatini qarata boshlaydi.

Bolaning 1-yig‘isiyok nutk apparatlarini rivojlantira boshlaydi.2-3 oylikda g, k, a tovushlarini chiqaradi, 8 oyligida kattalarning gapini tushuna boshlaydi, kattalarga taqlid qilib nutqi o‘sib boradi. Shu tariqa bolada iroda, odat, xissiyot, temperament belgilari ham tez usib, rivojlanib boradi.

Erta bolalik (1-3 yosh)davrida bola yura boshlaydi, tevarak-atrofdagi narsalarni bilishdagi daslabki qadamini qo‘yadi. Nutqi yordamida atrofdegilar bilan munosabatida bo‘la boshlaydi. Bu esa undagi psixik jarayonlarning rivojlanishiga imkon beradi.

2 BOB. Maktabgacha yosh davri bolalarida diqqat barqarorligini ta'minlashning amaliy asoslari

2.1. Maktabgacha yosh davri bolalarida diqqat barqarorligini psixologik taxlili.

Ma'lumki, har bir yosh davr, o'ziga xos xususiyatlar bilan belgilanadi, bularga: oilada va maktabda bola holatining o'zgarishi, ta'lim va tarbiya shakllarining o'zgarishi hamda bolaning yangi faoliyat turlari, organizmidagi ayrim xususiyatlarning yetilishi singari jarayonlarni kiritish mumkin. Ma'lumki, har bir davr o'zining muhim hayotiy sharoitlari, ehtiyojlari va faoliyati, o'ziga xos qarama-qarshiliklari, psixikasining sifat xususiyatlari va psixik jihatdan xarakterli yangi sifatlarning hosil bo'lishi bilan ajralib turadi. Har bir davr o'zidan oldingi davr tomonidan tayyorlanib, uning asosida paydo bo'ladi va o'z navbatida, o'zidan keyingi davrning paydo bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ixtiyorsiz diqqatning o'ziga xos fiziologik asosi bor. Akademik A.P.Pavlov ta'limoticha, bu asos orientirovka yoki tekshirish reflekslaridan iboratdir. Jumladan, u bunday yozgan edi; "Biz ham, xayvonlar ham tashqi muxitning salgina o'zgarishi bilan shu o'zgarishning sababiga qarata tegishli sezuvchi apparatlarimizni moslashtiramiz".

Tashqi qo'zg'ovchi miya yarim sharlariga turlicha kuch bilan ta'sir etadi. Eng kuchli tashqi ta'sirot dominant deb aytiladi. Bu ta'sirot qisqa muddat ichida kishi diqqatini o'ziga tortadi. Masalan, odam ma'lum faoliyat turi bilan mashg'ul bo'lib turgan paytda to'satdan eshitilgan hayqiriq ovozi uning faoliyatini buzadi va diqqatini o'ziga qaratadi. Bu dominantdir.

Dominant muayyan nerv uchastkasidagi kuchli qo'zg'aluvchanlik qobilyatiga ega bo'lgan qo'zg'alish markazi bo'lib, bu paytda boshqa nerv markazlari tormozlangan bo'ladi. Dominant markaziy nerv sistemasiga kelgan xar qanday qo'zg'alishlarni qabul qilib, ularga tegishli javob qaytaradi va boshqa markazlarning tormozlanishi evaziga o'z faoliyatini kuchaytiradi. Shunday qilib bosh miyaning katta yarim sharlari po'stlog'ida sodir bo'luvchi qo'zg'alish va tormozlanish protsesslari diqqat faoliyatining fiziologik asosidir.

Diqqatning bir qancha o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, bu xususiyatlar turli shaxslarda turlicha darajada uchraydi. Diqqatning asosiy xususiyatlari deganda, uning barqarorligi, beqarorligi, ko'lami (doirasi), bo'linishi, ko'chuvchanligi va parishonlik kabilar tushuniladi.

Diqqatning uzoq vaqt davomida biror bir narsa yoki ish ustida tura olishi uncha muncha ta'sirlarga chalg'imasligi uning barqarorligidir. Barqaror diqqat maqsadga muvofiq muddat mobaynida bir nuqtada mustaxkam turadi. Lekin ba'zi odamlarning diqqati kuchli va barqaror bo'ladi. Odam o'z diqqatini biror narsa yoki hodisaga uzoq muddat davomida muttasil qaratib tura olsa, uning diqqati kuchli va barqaror hisoblanadi. Barqaror va kuchli diqqatning odam faoliyatida katta ahamiyati bor. Chunki, odam o'z diqqatini zarur vaqt mobaynida biror narsaga qaratolmasa, o'z faoliyatining u istagan turida maqsadga muvofiq natijaga erisha olmaydi.

Odam diqqatning kuchli va barqaror bo'lishi quyidagi psixologik shartlarga asoslanadi: a) diqqat qaratilgan narsaning xususiyati va ahamiyatiga b) diqqat yo'naltirilgan narsaga bog'liq bo'lgan faoliyatga; v) nerv sistemasining ayrim individual imkoniyatlariga.

Bundan tashqari diqqatning kuchi va barqarorligi odamning Ayni chog'dagi xolatiga ham bog'liq bo'ladi.

Unutmash lozimki, odamning betoblik, g'amginlik, ruhiy tushkunlik xolatlarida uning diqqati kuchli va barqaror bo'la olmaydi. Ikkinchidan, qiziq va mazmunli bo'lmagan xolga nisbatan odam o'z diqqatini uzoq muddat qaratib olmaydi.. Odamda diqqatning barqarorligi, ko'lami, taqsimlanishi va to'planishining yuksak darajada o'sgan bo'lishi uning faoliyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sifatga ega bo'lgan bola o'zining ziyrak va sezgirlik bilan ajralib turadi, bilimlari tez va sifatli o'zgaradi. Diqqatning barqarorligi uning muhim xossasidir. Diqqatning kuchi turli darajada bo'lishi – diqqat kuchli va kuchsiz bo'lishi mumkin. Diqqat qanchalik kuchli bo'lsa, u diqqat ob'ektiga shunchalik ko'p to'planadi, boshqa, ayni vaqtda keraksiz bo'lgan narsalarga shunchalik kam chalg'iydi. Biz tashqi tomondan diqqatning kuchi to'g'risida asosan, uning chalg'ish darajasiga qarab hukm chiqaramiz. Bolaning diqqati har xil, hatto kuchsiz darajadagi chetki qo'zg'ovchilardan, o'rtoqlarining pichirlashganiga, koridorda bo'layotgan gaplarga chalg'ib ketaversa – bu ayni vaqtda bolaning diqqati kuchsizligidan dalolat beradi. Agar bola bunday chetki qo'zg'ovchilar (ba'zan hatto kuchli qo'zg'ovchilar) ta'sirini ham go'yo «sezmay», balki muayyan bir ishga berilib qunt bilan ishlasa, bu ayni vaqtda bola diqqatining kuchliligidir.

Eng kuchsiz diqqat, odatda, tarqoq diqqat, parishon diqqat yoki to'g'ridan-to'g'ri parishonlik deyiladi.

Parishonlik odamning o'z diqqatini biron-bir muayyan ishda tutib tura olmasligidir. Parishonlikda odamning diqqati bir narsadan boshqa bir narsaga beixtiyor ravishda o'tib turadi, bu narsalardan birontasida ham to'xtab turmaydi. Parishonlik holatini biz bolalar hayotining dastlabki kunlarida uchratishimiz mumkin: yosh bola diqqatini hali hech bir narsa ustida tutib tura olmaydi. Parishonlik holati katta yoshdagi odamlarda ham bo'ladi, masalan, charchaganda nerv kasalligiga duchor bo'lganda, nerv sistemasi zaharlanganda katta yoshdagi odamlar ham parishon bo'lib qoladi.. Bolalarni parishon bo'lib qolishlariga, ko'pincha, yaslida ular diqqatini yetarli darajada tarbiyalamaslik sabab bo'ladi.

Parishonlikni odamning hech bir narsaga diqqat qila olmasligi deb tushunish yaramaydi. Odam hamisha diqqat qila olish qobiliyatiga egadir, lekin odam diqqatining to'planish darajasi hamma vaqt bir xil bo'lavermaydi. Parishonlik-bu eng kuchsiz diqqatdir, miya po'stida qo'zg'algan joyning kuchsiz bo'lishligidir.

Diqqat haddan tashqari kuchli bo'lganida ham alohida parishonlikni ko'rish mumkin. Eng kuchli diqqatda ongimiz diqqat qaratilgan narsaga batamom to'planadi va kam

chalgʻiydi yoki hatto boshqa kuchli qoʻzgʻovchilar taʼsir qilib turganida ham sira chalgʻimaydi. Odam narsaga juda berilib ketganda vaziyatni unutib qoʻyadi, tevarak-atrofdagilarning gapi qulogʻiga kirmaydi, oʻzining odatlangan ish-harakatlarini sezmay qoladi. Diqqat kuchli boʻlgan vaqtda odamning parishon boʻlib qolishini har bir kishi oʻz tajribasidan yoki boshqa odamlarda koʻrganlaridan yaxshi biladi. Masalan odam haddan tashqari quvongan vaqtda mana shunday parishon boʻlib qoladi. Odamning quvonishiga sabab boʻlgan narsa hodisalar baʼzan odam ongini oʻziga shu qadar jalb qilib oladiki, boshqa hech bir narsa uning ongiga borib yetmaydi yoki yetsa ham, juda qiyinchiliklar bilan borib yetadi. Odam haddan tashqari xursand vaqtida shu xursandchilik uygʻotgan obʼektga taalluqli narsalarnigina idrok qiladi, faqat shu narsalar toʻgʻrisidagina oʻylaydi. Baʼzan biron-bir juda qiziqarli roman oʻqiganda, matematikadan murakkab bir masalani yechganda va umuman biron faoliyatga juda berilib ketgan vaqtda bizda ham shunday parishonlik holati sodir boʻladi.

P. Pavlov bunday parishonlikning fiziologik asosini koʻrsatib bergan: «Oʻyga choʻmib ketganimizda, biror ishga juda berilganimizda tevarak-atrofimizda boʻlayotgan narsalarni koʻzimiz koʻrmaydi, qulogʻimiz eshitmaydi – bu yaqqol manfiy induksiyaning yuz berishidir». (III tom, 2-kitob, 335-bet) Buning maʼnosi, bosh miya poʻstining bir uchastkasida sodir boʻlgan qoʻzgʻalish poʻstning boshqa uchastkalarini tormozlaydi, demakdir.

Uzoq muddatgacha bir narsaning oʻziga qaratilib tura oladigan diqqat barqaror diqqat deyiladi.. Masalan, bola butun dars davomida darsning borishiga diqqat qilib oʻqituvchining tushuntirishlarini boshqa narsalarga chalgʻimay tinglab borsa, biz bolaning diqqatini barqaror diqqat deymiz. Bordi-yu, bola oʻqituvchining tushuntirishlariga avval boshda quloq solib borib, lekin 10–15 minutdan keyin boshqa narsa bilan shugʻullansa yoki boshqa narsalar toʻgʻrisida xayolga berilib ketsa, yoki oʻqituvchining tushuntirishidagi ayrim momentlarni «eshita olmay qolibman» desa, yo boʻlmasa kitob oʻqisa-yu, uning mazmunining ayrim momentlariga «eʼtibor bermabman» desa, bunday diqqat beqaror diqqat deyiladi.

Diqqatning barqaror diqqat yoki beqaror diqqat turiga kirishini koʻrsatuvchi qatʼiy belgilangan biror-bir meʼyor, koʻrsatkich yoʻq va bunday meʼyor, koʻrsatkichning boʻlishi mumkin ham emas. Diqqatning barqarorligini diqqatning turi – ixtiyoriy va ixtiyorsizligiga qarab, shuningdek, biron-bir turdagi diqqat bilan bajarilayotgan ishning mazmuni va xarakteriga qarab har xil baho berish mumkin.

Har bir kishining diqqati amaliyotda, faoliyat jarayonida, tarbiya qilish va oʻz-oʻzini tarbiyalash yoʻli bilan oʻsib, maʼlum darajada kuchli va barqaror diqqat boʻlib qoladi. Maktabgacha yosh davridagi bolalarning asosiy faoliyatlaridan biri oʻyin faoliyatidir. Asosiy faoliyat deb bolaning ayni shu yoshdagi tez-tez koʻzga tashlanib turadigan xatti-

xarakatlariga aytamiz Asosiy faoliyat shundan iboratki, bu faoliyat tufayli bolaning psixik jihatdan o'sishda jiddiy o'zgarishlar yuz beradi.

2.2. Diqqatning barqarorligini ta'min etadigan shart-sharoitlar.

Odam faoliyatining barcha turida, albatta, nihoyatda kuchli (eng ko'p to'plangan) va nihoyatda barqaror diqqatning ahamiyati juda kattadir.

Diqqatning kuchli va barqaror bo'lishi bir qator shartlarga:

- diqqat ob'ektining mazmundorligiga,
- faoliyatga,
- ish bajarilayotgan vaziyatga,
- odamning ruhiy holatiga,
- irodasiga va qiziqishlariga bog'liqdir.

Diqqat ob'ektining xarakteri va ishning mazmundorligi; uning kuchli va barqaror bo'lishi diqqat ob'ektining mazmundorligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Diqqat ob'ekti qanchalik mazmundor bo'lsa, diqqat ham shu qadar kuchli va barqaror bo'lishi mumkin. Mazmunsiz narsalarga diqqatni qaratish va tutib turish ancha mahol ish. Masalan, bir varaq toza qog'ozga chizilgan doiraga uzoq vaqt diqqat bilan qarab shuningdek, tinimsiz bir xil balandlikda va bir xil kuch bilan chiqayotgan tovushni ancha muddatgacha eshitib turish ham qiyin. Bu singari mazmunsiz narsalar ustida diqqatni to'xtatib turishlikka urinib ko'rsak, diqqatimiz har 3–5 sekunddan keyin boshqa narsalarga chalg'iydi yoki tebranib turadi, ya'ni har 3–5 sekund oralig'ida odam goh qunt bilan diqqat qiladi, goh diqqati sustlashadi, bu ikki hol biridan-ikkinchisiga o'tib turadi. Diqqatning tebranish holatini, masalan, quyidagi misolda ko'ra olamiz. Agar kesik piramidaning rasmiga bir necha vaqt tikilib qarab tursak, bunda piramidadagi kichik to'rtburchak goh yuqoriga bo'rtib, goh ichkariga botiq bo'lib ko'rinadi. Diqqatning shunga o'xshash tebranishini jimjit sharoitda cho'ntak soatining chiqillashiga quloq solib ko'rilganda kuzatish mumkin: soatning chiqillashi goh sekinlashadi, goh to'xtab qoladi; gox, soat yana chiqillay boshlaydi. Idrok qilishdagi bunday o'zgarishlar – diqqat tebranishining natijasidir. Diqqatning tebranishi, ya'ni qunt bilan diqqat qilish va diqqatning sustlashishi ba'zan bir minut ichida 25–30 martagacha bo'ladi. Rus psixologi N. N. Langening tekshirishlarida ko'rsatilishicha, diqqat 2–3 sekundgacha, ko'pi bilan 12sekundgacha tebranmay tura oladi. Odam charchagan vaqtida diqqat tebranishining tezligi ortadi. Ammo diqqat qaratiladigan narsaning mazmuni har xil bo'lsa va ayniqsa bu narsa harakat qilib tursa, diqqat ancha barqaror bo'ladi. Odam mazmundor ishga diqqat qilganida, uning diqqati 15–20 minut va undan ko'p vaqt hech bir narsaga bo'linmay hamda chalg'imagay to'xtab tura oladi. Diqqatning muttasil 20 minut qaratilgandan keyin boshqa yoqqa bir necha sekund chalg'ishi ishning borishiga deyarli yomon ta'sir etmaydi. Bunda oz-moz 2–3 sekund dam berilishi bilan diqqat bir necha soat davomida barqaror turishi mumkin. Shu bilan birga, ish qanchalik mazmunli bo'lsa, bu ishda xotira, hayol va fikrlash jarayonlari qanchalik samarali va xilma-xil

bo'lsa, odamning shu ishga qaratilgan diqqati shunchalik kuchli va barqaror bo'ladi. Idrok, esga tushirish va shuning kabi hissiy faoliyatlarga nisbatan tashqi harakatlar bilan bog'liq bo'lgan faoliyatlarda diqqat kuchli hamda barqaror tarzda namoyon bo'ladi.

Diqqatning kuchi va barqarorligi biror yumush bajarilayotgan va odam idrok qilib turgan sharoitga bog'liqdir. Bu sharoitda biron-bir narsa odam diqqatini beixtiyor ravishda jalb qilsa, diqqatning barqarorligiga halal yetishi, diqqat kuchi esa zaiflashishi mumkin. Diqqatning kuchsizligi, uning beqarorligi, jumladan, odam diqqatini chalg'ituvchi qo'zg'ovchilar ta'sirini yenga olmasligida ko'rinadi. Yana shu narsani ham ko'zda tutish kerakki, har qanday o'zga qo'zg'ovchilar diqqatning kuchi va barqarorligiga hamma vaqt ham yomon ta'sir qilavermaydilar. Juda ko'p hollarda unchalik kuchli bo'lmagan ikkinchi darajali qo'zg'ovchining to'xtovsiz bir tekisda ta'sir etib turishini biz payqamaymiz. Bunday qo'zg'ovchining ta'siri diqqatimizni chalg'itmaydi hamda uning kuchi va barqarorligini buzmaydi. Ma'lumki, mana shunday ikkinchi darajali qo'zg'ovchilar ba'zan, hattoki diqqatimizni kuchaytiradi. Ba'zi vaqtda shamolning ovozi, sekin eshitilib turgan muzika sadosining ta'siri ostida biron narsani o'qir yoki fikr yuritir ekanmiz, bizda g'oyat to'plangan diqqat yuz beradi. Bunday holat ikkinchi darajali qo'zg'ovchi ta'siri bilan tug'ilgan qo'zg'alishning diqqat markazida turgan narsadan keladigan qo'zg'alishga qo'shilishi tufayli sodir bo'lsa kerak, lekin qo'zg'alishning bunday «kuchayishi» ikkinchi darajali qo'zg'ovchi «sezilib» turishiga qaramay, uning ta'siri diqqat markazida turgan narsaning ta'siridan anchagina sust bo'lgandagina yuz berishi mumkin.

Diqqatning kuchi va barqarorligi hissiyotga bog'liq. Bu yerda hissiyotning roli ikki turli – ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Hissiyot diqqat qaratilgan narsa bilan bog'liq bo'lgan taqdirdagina diqqat uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'ladi: bunday hissiyot qanchalik kuchli bo'lsa, diqqat ham shunchalik kuchli va barqaror bo'ladi. Ixtiyorsiz diqqatning kuchi va barqarorligi, asosan, hissiyotga bog'liq. Kishining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hislar, emotsiyalar ham ixtiyoriy diqqatning kuchi va barqarorligini mustahkamlaydi va zo'raytiradi. Bilish va amaliy faoliyat jarayonida kishining ongi tobora ko'proq yangi narsalar bilan boyib borar, bilmagan va oz bilgan narsalarini bilib borar ekan, diqqatning to'planishi va barqarorligi ham ortib boradi. Yangilikni sezish hissi kishining bilish faoliyatini kuchaytiradi, aktivlashtiradi, shu bilan birga, diqqatning kuchini va barqarorligini mustahkamlaydi. Diqqatning kuchi va barqarorligiga kishining ayni paytdagi umumiy kayfiyati ham ta'sir qiladi. Yaxshi kayfiyat har qanday ishda diqqatimizning kuchini oshiradi. Diqqat ob'ektidan bo'lak sabablar tufayli qo'zg'algan tuyg'u-hissiyot diqqatning kuchi va barqarorligiga salbiy ta'sir qiladi. Bunday tuyg'u-hislar diqqatni chalg'itadi va kuchsizlantiradi hamda uning barqarorligini buzadi..

Ixtiyoriy (irodaviy) diqqatning kuchi iroda kuchi bilan saqlab turiladi. Ko'pincha, ixtiyorsiz diqqatning barqarorligi ham faoliyat jarayonida irodaning zo'ri bilan ushlab turiladi. Shuning uchun iroda, asosan, diqqatda ko'rinadi,– desa bo'ladi. Agarda kishi diqqatli bo'lishni hohlab,

buning uchun zo‘r bersa, diqqat kuchli va barqaror bo‘ladi; bunda kishi ixtiyorsiz ravishda paydo bo‘ladigan va diqqatning ob‘ektiga munosabati bilmagan taassurotlar, tasavvurlar, fikr va hissiyotlarni siqib chiqarish va yo‘q qilib yuborish uchun zo‘r harakat qiladi. Irodaning ishga solinishida kishining bir maqsadga initilishi, uning ishga shaylanib, hozirlanib turishi katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun, kuchli va barqaror diqqat hosil qilishda ma‘lum ishga moyillik va tayyor bo‘lishlik katta rol o‘ynaydi. Bu ishga shaylanish, yo‘l tutishdir. Chunonchi, agarda o‘quvchi uy vazifasini tayyorlashga shaylansa, o‘qish ishiga hafsala qo‘ysa, uning diqqati butun ish davomida unchalik zo‘r berishni talab qilmaydi. Shuning bilan bir vaqtda, uning diqqati kuchliroq va barqarorroq bo‘ladi. Diqqatning g‘oyat darajada mujassamligini va barqarorligini saqlab turish uchun kishining ishga muvofiqlanishi, ishlashga odatlanib qolganligi katta ahamiyatga egadir.

Ma‘lumki, deyarli har qanday ish boshda qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘ladi, kishidan alohida kuch bilan zo‘r berishlikni talab qiladi. Bironta yangi ishning boshlanishida unga qarata birdaniga diqqatni to‘plash qiyin bo‘ladi. Biz, ko‘pincha, o‘zimizni ma‘lum bir ish bilan «shug‘ullanishga» majbur qilamiz. Shunday yo‘l bilan biz uchun misli odat bo‘lib qolgan diqqat, ya‘ni ma‘lum bir tashqi ifodaga ega bo‘lgan va organizmning ayni ish sharoitiga odatlanib ko‘nikishi tufayli doimo ishga tayyor diqqat hosil bo‘ladi. Bunday diqqat psixologiyada, boshqacha qilib aytganda odat bo‘lib qolgan diqqat deb ataladi. Bunday odat bo‘lib qolgan diqqatning hosil bo‘lishida ishdagi saranjomlik, jumladan, ma‘lum ish joyining tayin bo‘lishligi, muayyan bir ishning ma‘lum reja bilan qilinishi (o‘qish mashg‘ulotlarining qat‘iy jadvaliga rioya qilinishi), mehnat asboblarning va materiallarining joy-joyida bo‘lishi katta ahamiyatga egadir. Maktabda partadagi o‘rinni tez-tez almashtirib turish, uyda doimiy ish joyining bo‘lmasligi – bularning hammasi o‘quvchining diqqatiga salbiy ta‘sir qiladi. Odat bo‘lib qolgan diqqat ishda saranjomlik bo‘lishi uchun juda muhimdir. Bizdagi odatlar mashq natijasida hosil bo‘ladi. Shuning uchun, kuchli va barqaror diqqat ham mashqning mahsulidir. Diqqatning to‘planishi va barqarorligini saqlab turishda kishining qiziqishlari katta ahamiyatga egadir. Ixtiyorsiz diqqatning barqarorligi, asosan, kishining ayni faoliyatiga bevosita qiziqishiga, ishtiyoqiga bog‘liq. Bevosita qiziqish – bu ayni ish jarayonining, ish-harakatlarning o‘ziga, ish usullariga bo‘lgan qiziqishdir. Ixtiyoriy diqqatning kuchi va barqarorligi, asosan vositali qiziqishga, ya‘ni faoliyatning maqsadi, ishning natijasi bilan qiziqishga bog‘liq. Ixtiyoriy diqqat asosida qilinadigan ish jarayonining o‘zi zo‘r berishni talab qilish tufayli nohush bo‘lishi mumkin. Bunday ish davomida diqqatning to‘planishi va barqarorligi erishilgan maqsadni, ish natijalarining zarurligi va ahamiyatini anglash orqali saqlab turiladi. Yoshlarning qiziqishlari, ularning asosiy va hayotiy maqsadlari uning kelajagini faolligini ta‘minlashdan iboratdir. Bunday maqsadlarni anglash o‘z ishi protsessida diqqatining g‘oyat darajada to‘planishi va barqarorligini ta‘min etuvchi eng muhim shartlardandir.

2.3. Maktabgacha yosh davri bolalarida diqqat barqarorligini ta'minlashda o'yin faoliyatining ahamiyati.

O'yin bola hayotidagi asosiy faoliyatlardan biridir. Bolaning asosiy faoliyati bo'lgan o'yin faoliyati orqali uning barcha fiziologik, psixologik rivojlanishi ta'minlanadi. O'yin shu qadar universal, shu qadar ko'p qirrali va nixoyatda qudratli faoliyatdirki, bog'cha yoshidagi bolalarni o'yindan boshqa yo'l bilan kamolga yetkazishni tasavvur etish qiyin. Bolalarning o'yin faoliyatini rus psixologlaridan L.S.Vigotskiy, Ye.A.Arkin, D.B.Elkonin va boshqalar tadqiqotlarida ilmiy nuqtai nazardan tushuntirib berganlar.

Ma'lumki, bolaning yoshi ulgayib mustaqil xarakat qilish imkoniyati oshgan sari uning atrofidagi narsalar va xodisalar dunyosi ham kengayib boradi. Bolaning bog'cha yoshidagi davrida uning faoliyat doirasidagi kuchi yetadigan xaddi sig'adigan narsalardan tashqari, kattalarni faoliyatlari ya'ni ularni xali mutloqo xaddilari sig'maydigan, jismoniy jihatdan kuchlari yetmaydigan narsalar ham mavjud.

Psixik taraqqiyotning mana shu bosqichida bolalar uchun mavxum nazariy faoliyat, ya'ni nazariy yo'l bilan bilish faoliyatining bo'lishi mumkin emas. Bu yoshdagi bolalarning atrofidagi narsalarni bilish faoliyatining faqat bevosita xarakat qilish shaklida bo'ladi. Bog'cha bolalarini haddan tashqari faol ekanliklarining sababi ham ana shundandir. Bog'cha yoshidagi bola atrofidagi narsalar bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofidagi o'zining xaddi sig'adigan narsalar bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan o'zining kuchi ham yetmaydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Buni natijasida bolalarda xaddan tashqari tez ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasida keskin qarama-qarshilik yuzaga keladi. Bolalarni tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo'l bilan xal kilinadi?. Bu qarma-qarshilik faqat birgina faoliyat orqali, ya'ni bolaning o'yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni shu bilan izohlab berish mumkinki:

*Birinchidan bolaning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas, chunki bolalarni o'yinga undovchi sabab o'yindan kelib chiqadigan natija bilan emas balki, shu o'yin jarayonidagi turli xarakatlarning mazmuni bilan bog'liqdir.

* Ikkinchidan esa bolalar o'yin jarayonida uz ixtiyorlaridagi narsalarni ularni kiziktirgan, ammo kattalargagina mansub bulgan narsalarga aylantirib, erkin faoliyatda buladilar. Shunday qilib bolalar atrofidagi kattalar uchungina mansub bo'lgan xali o'zlarini kuchlari ham yetmaydigan juda ko'p narsalarni o'yin orqali o'zlashtiradilar.

O'yinning bolalar psixik taraqqiyotidagi qudratli roli mashxur pedagog va psixologlardan tashqari mutafakkir yozuvchilarni ham diqqat e'tiborini jalb etgan. Masalan rus yozuvchilaridan biri M.Gorkiy bolalar o'yin va uning moxiyati xaqida shunday fikrlarni aytib

o'tgan. «O'yin bolalar uchun o'zlari yashab turgan dunyoni bilish hamda uni o'zgartirish qurolidir». O'yin bolalar xayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda bolalarga mansub bo'lgan mexnat ham, narsalar xaqida fikr yuritish ham, xayol qilish, dam olish va xushchaqchaqlik manbaalari ham mujassamlashgan. Mana shu jarayonlarning barchasi o'yin faoliyatida namoyon bo'ladi. O'yin faqat tashqi muxitdagi narsa va xodisalarni bilish vositasi bo'libgina qolmay balki, qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarni barcha psixologik xususiyatlari shakllanadi. Mana shu nuqtai nazardan o'yin bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlarini yo'lga qo'yishda markaziy o'rinda turadi. O'yin jarayonida bolaning barcha psixik jarayonlari tarkib topishida imkon bo'ladi. Chunki o'yin faoliyati bolalarni diqqat va xotirasi, nutqi, xayoli, xissiyoti, mexnatga oid malakalari va qobiliyatlarida namoyon bo'uladi. Bog'cha yoshi bolalarni o'yini xilma-xildir. Ularni o'yin turlarini asosan quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

- 1) syujetli va rollarga bo'ulib yo'naladigan o'yinlar;
- 2) Didaktik o'yinlar;
- 3) Xarakatli yoki qoidali o'yinlar;
- 4) Aralashtirilgan o'yinlar;
- 5) Ko'rish va yasash o'yinlari.

Syujetli va rollarga bo'lib o'ynaladigan bog'cha yoshi bolalarni eng asosiy o'yin formasidir . Masalan: «bog'cha-bog'cha», «poezd-poezd» kabi qiziqarli bo'lgan o'yinlar o'ynaydi. Lekin turli yoshdagi bolalarning o'yinlari bir xil bo'lsa ham syujeti xar xil bo'ladi. Masalan: kichik gruppada bolalari «bog'cha-bog'cha» o'yinini o'ynar ekan ular peshinga ovqat pishiradilar, nonni kesadilar, idishni yuvadilar. Ammo kesilgan non qo'g'irchoqlarga berilmaydi, pishirilgan ovqat tarelkaga suzilmaydi. Bolalarga sensor tarbiya berishda didaktik o'yinlarni roli katta. Didaktik o'yinlar bog'chada maxsus programma asosida olib boriladigan mashg'ulotlarni muvaffaqiyatli o'tkazishga yordam, katta gruppada bolalarini maktabdagi o'qish faoliyatiga katta yordam beradi. Bog'cha yoshi davrida bolalar o'yinlari ichida xarakatli yoki qoidali o'yinlar ham muximdir. Chunki xarakatli o'yinlar bolalarni jismoniy jixatdan chiniqtiradi, ularni dadil, qo'rqmas, epchil bo'lishga undaydi. Bolalarga tashabbuskorlik, kollektivizm, burch xislarini o'stiradi. Bunga «Kim birinchi », «koptok», «oq quyoncha », «etib ol» o'yinlari kiradi. Xarakatli o'yinlar asosan sayr va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'tkaziladi. Drammalashtirilgan o'yinlarni ham bolalar sevib o'ynaydilar. Bu o'yinlarda turli xil ertak va xikoyalar saxnaga qo'yiladi, rollarni esa bevosita bolalarni o'zlari ijro etadilar. Masalan: «qizil shapkacha», «Tormok», «Sholgom» drammati o'yinlar bolalarni nutki xayol va qobiliyatlarini tarkib toptiradi. Bog'cha yoshi bolalari o'yinlari orasida kurish, yasash o'yinlari hammaga ma'lum bir maksadga karatilgan buladi.

O'yin faoliyati bolalarni individual ravishda urganish imkonini beradi. Ayrim bolalar kollektiv bulib uynashni yoktiradilar bu psixologik bolani umumiy tarakkiyotiga ta'sir etadi. Shuning

uchun tarbiyachilar kollektiv o'yinlarga tortishlari kerak. Bu yoshdagi bolalar o'yinlari kuyidagi psixologik xususiyatga ega.

- 1) Bolalar o'yinlari mazmuni xaddan tashkari boyligidadir. Bolalar xayotining sermazmunligi buning asosiy sababidir.
- 2) Bolalarlar o'yinlarini doimo jamoa tusda ekanligi.
- 3) Xususiyat o'yin jarayonida vatanparvarlik tuygularini namoyon bulganligidadir. Urta va kata bog'cha yoshidagi bolalar Uzbekistonning poytaxtini juda yaxshi biladilar va uni sevadilar, shu tufayli o'yinchoklardan zur marok va gurur yasaydilar. Bundan tashkari turli millat bolalari uchun yasalgan kugirchoklarni sevadilar va uzlari ham plastilindan shunday kugirchoklarni yasashga intiladilar.
- 4) Xususiyati – o'yin jarayonida kishilarni mexnatga munosabatlarini aks ettiradilar. O'rta va katta gruppada bolalari o'yinlarida kattalar mexnatining o'zlariga ma'lum bo'lgan turlarini taqlidan aks ettiradilar. Ular bir-birlari bilan doimo do'st va ittifoq bo'lib o'ynaydilar. Bir-birlariga, o'rtoqlariga yordamlashadilar.
- 5) Xususiyati-insonparvar va hayotbaxsh bo'lishidir. Bolalar o'zlarini uinlarida xalqimiz kishilarini kelajakka bo'lgan ishonchini ko'tarinki ruxini va yuksak maqsad sari intilishlarini aks ettiradilar. Shunday qilib, bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a surib borayotgan sermahsul hayotimizning hamma tomonlarini aks ettiradilar.

Birinchi bob yuzasidan xulosalar

Barcha ilmiy manbaalarning taxlillari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, maktabgacha yosh daridagi bolalarning diqqati asosan beqarorligini hisobga olganda holda ularning diqqat barqarorligini ta’minlovchi usullarni qator psixolog va fiziolog olmilarning tadqiqotlarida ko‘rish mumkin. Ularning ta’kidlashicha barcha bolalarda diqqat barqarorligini ta’minlashning asosi, bu didaktik , ko‘rsatmali mashg‘ulotlarning tashkil etilishida ekan.

2.2. Maktabgacha yosh davri bolalarida diqqat barqarorligini o'rganish usullari

Shaxs ma'lum ijtimoiy munosabatlar sistemasida shakllangan ijtimoiy mavjudotdir. Xar bir tarixiy davrda shaxsning o'ziga xos xususiyatlari shu davrning ijtimoiy-iktisodiy tipi va tarbiya tizimiga bog'lik holda tashkil topadi, shakllanadi.

1. Sinaluvchi xarflarning alfavit tartibida aytadi va 'ar bir xarfdan so'ng maolom bir sonni 'am qo'shib aytadi. Bunda A xarfiga birni, undan keyingi xarflarga uch sonini qo'shib, yaoni a - bir, b- to'rt, v-etti, g-un va shu tarzda "Farona" xarfigacha aytiladi. Sarflangan vaqt doskaga yozib qo'yiladi. Mazkur tajribani yana ikki uchta talaba takrorlaydi.

2. A) sinulauvchi doskaga 1 dan 20 gacha bo'lgan sonlarni yoza boshlaydi va bir vaqtning o'zida bu sonlarni ovoz chiqarib teskarisiga 20-dan 1 ga qarab o'qiydi va 'okazo.

b) sinaluvchi kitobdan biror narsani ovoz chiqarib o'qiydi va ayni paytda doskaga boshqa bir narsani yozadi.

Qolgan talabalar bu 'ar ikkala ishning qay darajada ossi va bab-baravar bajarilishini kuzatib boradilar. Mazkur tajribani yana 2-3 talaba takrorlaydi.

Eksperimentator diqqatning bo'linishiga doir bu tajribalar yaknini talabalar 'amkorligida umumlashtiradi.

Diqqatning barqarorligini Burdonning krreksion jadvali yordamida aniqlash.

Instiruksiya. Tajribaning nomi eolon qilingan, 'ar bir talabaga ilgari tayyorlanib qo'yilgan Burdon jadvalidan ikkitadan tarqaladi. Jadvallardan birining yuqori qismi o'ng burchagiga "Sinov tajriba", ikkinchisining shu joyiga "Asosiy tajriba" deb yozilgan bo'ladi.

Diqqat konsentratsiyasini

$$K=SI/p$$

formulasi orqali hisobladik.

Bu yerda S – tablitsada berilgan tekshiriluvchi ko'rib chiqqan qatorlar soni,

p – xatolar soni, bu yerda o'chirilishi kerak bo'lgan harflarni o'tkazib yuborish hamda noto'g'ri, kerak bo'lmagan harflarni o'chirib yuborish xato hisoblanadi.

Sinov tajriba uchun Burdon jadvali

AMKZ

GXBKShZPYuVRIKPAETISGRB XSYuGIKVPDRGMAITKOBEMFOI

YuShLZJVPEPChNVSJULXYuRXBYaZ ShIOSChEXTESPMNORJXShNAECh

YuPJVLYuFOPVAKChMKChZShAJKNDXISVPBYuJRSPVUYuShATXSGMKRATYuDdr

GRLVRGAMKETIZOUBXFPLJShYaISYuDYuXVTUChPYaIX

NLUTShIGVKOGZMXYaRDACHeYuYaJ SFNPDSRKG

Bolalarga sinov tajriba uchun tayyorlangan jadval va qalamning qo'lga olinishi aytilgach, bajarilishi lozim bo'lgan ish tartibi tushuntiriladi.

“Oldilaringizda xarflar yozilgan qog‘oz turibdi. Sizlar bu xarflarni diqqat bilan ko‘zdan kechirib, ularning ichidan AMKZ xarflarini topib, vertikal chiziqlar bilan uchirib chiqasizlar. “Boshlanglar” deyilgandan so‘ng ishga kirishasizlar va “to‘xtatinglar” deganimda ishni bas qilasizlar”. Tajribada bog‘cha yoshidagi bolalarning 5,6 yoshlilar ishtirok etadilar, ya‘ni ular tayyorlov guruxidagilar. Chunki ularni diqqat barqarorligini shakllantirish zaruriy jarayondir. Maktab ta‘limiga o‘tish davrida bu jarayoni shakllantirish va mustaxkamlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bolalar tomonidan berilgan ayrim savollarga javob qaytarilgach, sinov tajriba boshlanadi. U bir minutcha davom etadi. Keyin asosiy tajribaga o‘tiladi.

1. Instruksiya takrorlanadi. Bunda ham yuqoridagiga o‘xshab AMKZ xarflari vertikal chiziqlar bilan o‘chirilishi lozimligi ta‘kidlanadi.
 2. Bolalarni tajribaning har bir minuti o‘tgach “Chiziqcha qo‘ying” degan buyruq beriladi deb ogohlantiriladi. Buyruq berilgan paytda qaysi xarfga kelgan bo‘lsangiz shu xarf ustiga chiziqcha qo‘yishingizni lozim deb uqtiriladi.
 3. Asosan tajriba sinov tajribadan farqli o‘laroq 8-10 minut davom etadi.
- Ikkinchi, to‘rtinchi va oltinchi minutlarda qo‘shimcha ko‘zlovchi ham ishga solinadi.

Asosiy tajriba tugagach, natija quyidagi tartibda ishlab chiqiladi:

1. Asosiy tajribaning har bir minuti bo‘yicha quyidagi ko‘rsatkichlar hisoblab chiqiladi.
 - a) o‘chirilishi lozim bo‘lgan xarflarning umumiy soni
 - b) ulardan o‘chirilmay qolgan yoki noto‘g‘ri o‘chirilgan xarflarning miqdori.
2. Mazkur ko‘rsatkichlarning 1,3,5,7 va 2,4,6,8 minutlar bo‘yicha jami.
3. Diqqatning birinchi, uchinchi, beshinchi, yettinchi va ikkinchi, to‘rtinchi, oltinchi, sakkizinchi minutlari bo‘yicha barqarorlik darajasi hisoblab chiqiladi. Buning uchun dastlab to‘g‘ri o‘chirilgan xarflar umumiy sonidan o‘chirilmay qolgan yoki noto‘g‘ri o‘chirilgan xarflar soni ayirib tashlanadi va har bir minutda ko‘zdan kechirilgan to‘g‘ri o‘chirilgan belgilar protsenti hisoblab chiqiladi. Natija diqqatning quyidagi barqarorlik normasiga asoslanib ko‘rsatiladi..

Eng yaxshi - 81-100

yaxshi ko‘rsatkich - 61-81

o‘rtacha ko‘rsatkich - 41-61

past ko‘rsatkich - 21-40

B A Y O N N O M A:

Tekshiriluvchi: 25 nafar тарбияланувчи

Tekshiruvchi:

Tekshiriluvchining ruhiy holati: болалапning ruxiy xolati sog‘lom psixologik

xarakterda. qiziqishlari va bilishga intilishi normada . sezish va ixtiyoriy diqqati jamlangan. E'tiborini tadqiqotga jalb eta oladi.


Sana:

Vaqt oralig'i	Fon	Javoblar			Diqqatning xossalari			
		To'g'ri (m)	Xato		Tanlash tezligi (S)	Aniqlik koeffisien ti (A)	O'rtacha qiymat (M)	Konsentra tsiya koeff. (K)
			r	p				
1	Ta'sirsiz	5%	12%	2%	10	11	10	15
2	Ta'sirsiz	8%	8%	2%	10	12	12	12
3	Ta'sirli	5%	12%	2%	10	11	10	15
4	Ta'sirsiz	8%	8%	2%	10	12	12	12
5	Ta'sirsiz	5%	12%	2%	10	11	10	15
6	Ta'sirsiz	8%	8%	2%	10	12	12	12
7	Ta'sirli	5%	12%	2%	10	11	10	15
8	Ta'sirsiz	8%	8%	2%	10	12	12	12
9	Ta'sirsiz	5%	12%	2%	10	11	10	15
10	Ta'sirsiz	8%	8%	2%	10	12	12	12

Natijalarni tahlil qilishda quyidagilarga asoslanildi:

1. natija dastur bilan solishtirilganda bolalarning bilish jarayonlarining to'la shakllanganligi ko'rsatildi..
2. korrektura blankasidagi vaqt oraliqlari aniqlanadi: ($T_1 \dots T_{10}$)
3. har bir vaqt oralig'i uchun to'g'ri javoblar aniqlanadi (m)
4. har bir vaqt oralig'i uchun tanlash tezligi $S(S_1 \dots S_{10})$ aniqlanadi.
5. grafik tuzib chiqiladi, diqqat barqarorligining shartli dinamikasi deb atalgan grafikning obsissa o'qiga 30-sekundlik oraliqdagi ($T_1 \dots T_{10}$) ordinata o'qiga tanlash tezligi ($S_1 \dots S_{10}$) qo'yiladi;
6. ta'sirgacha bo'lgan diqqatning aniqlik koeffisiyenti hisoblanadi: (A_{t-siz} va A_{t-li})
7. diqqat konsentrasiyasi (K^1 va K^n) hisoblanadi;

8. diqqatning barqarorligi va konsentrasiyasi haqida xulosa chiqariladi.



Diqqatning barqarorligini aniqlashda sinaluvchiga qo'shimcha qo'zg'ovchi orqali ta'sir ko'rsatilgan ikkinchi, to'rtinchi, oltinchi, sakkizinchi minutlaridagi ko'rsatkich, ayniqsa harakterli hisoblanadi.

Bu tajribada jami 15 nafar tarbiyalanuvchilar ishtirok etdilar. Tajriba natijalariga ko'ra 5-6 yoshli bolalarning diqqati beqaror mavjud, ularga mashg'ulotlarning sermazmun qiziqarli shakllarilan foydalanib tashkil etilishi diqqat barqarorligini ta'minlaydi.

3 BOB. Maktabgacha yosh davri bolalarida diqqat barqarorligini ta'minlashda psixokorreksion ishlarni tashkil etish natijalari.

3.1. Maktabgacha yosh davri bolalarining diqqatini diagnostik taxlil qilish va psixokorreksion mashqlarni tashkil etish usullari..

Diqqatda shaxsning aktivligi va uning oboektiv voqelikdagi predmet va xodisalarga bo'lgan munosabati o'z aksini topadi. Unda inson psixikasining boshqaruvchanlik roli namoyon bo'ladi: diqqatsiz maqsadga muvofiq ish yuritish mumkin emas.

Ishning to'g'ri yuritilishini va bu ishning ma'suldorligini ta'minlovchi fakt-shaxsning turli shart- sharoit hamda vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutishda uning diqqati o'ynaydigan rolni aniqlash anchayin mushkul. Har qanday masalani yoki har qanday hayotiy muammoni yechish shaxsdan mazkur masalaning mohiyatiga, qarakat uslubiga diqqatni to'plash va aktiv qaratishni talab qiladi.

Bola qaysi yoshda bo'lishidan qat'iy nazar, diqqatini mashg'ulot vaqtida tarbiyachi tushuntirayotgan mavzuga qaratmasa, tarbiyachi so'zlarini tushunmaydi, mashg'ulotning mazmunini, idrok qilolmaydi va materialni zarur miqdorda esda qoldira olmaydi. O'rganilayotgan materialini dastlabki idrok qilish, uni anglash va mustaqil esda saqlab qolish maqsadida qilinadigan keyingi ishlar bolalardan barqaror diqqatni talab qiladi.

Diqqat va diqqatlilikni tarbiyalashda mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil qilishning o'zigina yetarli emas. Bunda bolalarning uyushqoqligi va intizomlilikini ta'minlovchi kundalik rejimning izga qo'yilishi ham katta rol o'ynaydi.

Biz diqqat barqarorligini ta'minlashva bolalarda diqqatini to'play olish xususiyatlarini shakllantirilishini o'rganish uchun bolalarda psixokorreksion ishlarni amalga oshirish uchun ulardan

30 nafarini tanlab oldik. Psixokorreksion tadbirlardan oldin olingan diqqat xususiyatlarini o'rganish bo'yicha metodikalar natijalari korreksiyadan keyingi natijalar bilan qiyosiy tarzda o'rganildi. Quyida psixokorreksion dastur doirasidagi ayrim mashqlardan misollar keltiramiz.

1-mashq. Har bir o'quvchiga varaqda yozilgan matn beriladi va quyidagi yo'riqnoma amalga oshiriladi: Sizga berilgan matndan "2A" harfini toping va o'chiring. Bu korrektur mashq haftasiga kamida 5 marta 5 minutdan o'tkaziladi. Mashqni individual va guruhiiy tarzda o'tkazish ham mumkin.

Mashq asta-sekin takomillashtirib boriladi. Keyingi bosqichda 1 ta emas, 2 ta harf o'chirilishi so'raladi, ulardan biri kvadrat, ikkinchisi dumaloq shakl ichiga olinishi mumkin va h.k. Mashq tugagandan so'ng tekshiriluvchilarning nechta xato qilganligi aniqlanadi. Bunda mashq davomiyligi 5 minutdan oshmasligi kerak. Matn ko'lami 4-5 ta gapdan bir nechta abzatsgacha bo'lishi mumkin.

Topshiriq natijalarini ishtirokchilarning o'zlari bir-birlarinikini tekshirishlari bilan ham takomillashtirish mumkin. Bunda bolalarning o'zlari ko'p xato qilgan tengdoshlariga «jarima» solishlari ham mumkin. Bu metodikani amaliyotda qo'llash shuni ko'rsatdiki, 3-4 haftalik mashqlardan so'ng bolalarda o'zini nazorat qilish ko'nikmasi yaxshilanadi. Bu ko'nikmani mustahkamlash uchun mashqni 2-4 oygacha davom ettirish mumkin.

«Farqini top» mashqi.

Bu shakldagi topshiriqlar predmetlar va hodisalarning muhim belgilarini ajratish malakasini talab qiladi. O'quvchilarni sistematik va maqsadga yo'naltirilgan holda qiyoslashga o'rgatish diqqatni o'z vaqtida aktivlashtirish ko'nikmasining rivojlanishiga hissa qo'shadi. Taqqoslash uchun bolalarga detallarning ma'lum sonini o'z ichiga olgan qandaydir tasvirlar, rasmlar taklif etilishi mumkin.

«Hamma narsani payqaysan» mashqi

7-10 ta predmetni qator qo'yib, usti yopib qo'yiladi. So'ngra predmetlarning ustini 10 sekundga ochib, bolalardan uning qanday ketma-ketlikda joylashganini eslab qolishlari so'raladi. Yana predmetlarning ustini yopib qo'yib, 8-10 sekunddan so'ng predmetlarning ketma-ketligini so'rash mumkin. So'ngra esa, predmetlarning o'rnini almashtirib qo'yib, avvalgi holatida qanday ketma-ketlikda joylashgan ekanliklarini aniqlashlari mumkin. Mashqning so'nggi bosqichida o'sha predmetlarga qaramasdan, ularning rangini aytib berish so'raladi.

«Sanash» mashqi

Bolalardan 1 dan 20 gacha bo'lgan sonlarni doskaga yoki qog'ozga yozish davomida aytish taklif etiladi. Bunda sanash oldinga, yozish esa teskari tomonga qarab boradi, ya'ni bir degan holda o'quvchi qog'ozga 20 ni yozadi 2 deganda 19 va h.k. Topshiriqni bajarishga ketgan vaqt va xatolar soni sanaladi.

Shuni ta'kidlash joizki, bolalar bilan guruhiiy tarzda olib boriladigan o'yin va mashqlarni tanlaganda (ayniqsa harakatli o'yinlar) mazkur toifa bolalarning quyidagi xususiyatlarini inobatga olish zarur: diqqat beqarorligi, yuqori faollik hamda uzoq muddat davomida guruhiiy qoidalarga bo'ysunishni bilmaslik, ko'rsatmalarni oxirigacha tinglay bilmaslik va ularni bajara olmaslik, tez charchab qolish va x.k. O'yin davomida bu toifa bolalar o'z navbatlarini kutib turishlari juda qiyin va boshqalar manfaatlari bilan hisoblashishlari ham mushkul. Shuning uchun bu toifa bolalarni jamoaviy mashq va o'yinlarga bosqichma bosqich jalb etish maqsadga muvofiqdir. Guruhiiy o'yinlar ham aniq qoidalarga asoslangan, diqqatni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Bir funksiyaning mashqiga qaratilgan o'yinlar

O'yin mashq qildirishga qaratilgan funksiya	Individual	Guruxiiy
Diqqat	“Farqini top”, “Man qilingan harakat”	“Man qilingan hara-kat”, “Koptokni uzat”, “Broun harakati”
Harakatni nazorat qilish	“Qo'llar bilan suhbat”	“Dengiz mavjlanadi”
Impulsivlik nazorati	“Gapir!”, “Eyiladigan va yeyilmaydigan narsa-lar”	“Eyiladigan va yeyilmaydigan narsalar”, “Gapir!” “Siam egizaklari”

Sust funksiyalar mashqini ham bosqichma-bosqich olib borish zarur. Dastlabki davrlarda faqat bir funksiyani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar va o'yinlarni tanlash maqsadga muvofiqdir. Masalan, faqat diqqatni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar yoki bolalarga o'z

impulsiv harakatlarini nazorat qilishga o'rgatadigan o'yinlar. Korreksion ishdagi alohida bosqichni bolaga o'z xatti-harakatlari faolligini nazorat qilishga yordam beradigan o'yinlarni qo'llash tashkil etadi. Yukoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, ba'zi o'yinlarni ham individual, ham guruhiiy tarzda qo'llash mumkin.

Ikki yoki uchta funksiyani mashq qildirishga qaratilgan o'yinlar


Mashq qildiriladigan funksiyalar	O'yinlar
Diqqat va impulsivlik nazorati	“Baqirish — pichirlash— sukut saqlash”, “Gvalt”
Diqqat va harakat faolligi nazorati	“Mening uchburchak qalpog‘im” “Postlarni qo‘yib chiq”, “Qotib qol”
barqarorlik nazorati va harakat faolligi nazorati	“Sokinlik soati va “mumkin” soati”
Diqqat, barqarorlik nazorati va harakat faolligi nazorati	“Buyrug‘imni eshit”, “Qarsaklarni eshit”, “Dengiz to‘lqinlari”

Mashqlarni olib borishda bitta sust funksiya bo'yicha mashqlarni o'tkazib, natijalarni olgandan so'ng, birato'la ikkita funksiyani mashq qildirishga qaratilgan o'yinlarni tanlash mumkin. Avval aytib o'tganimizdek, bola pedagog yoki psixologning talablarini aniq o'zlashtira olishi uchun ishni individual tarzda boshlash maqsadga muvofiq, keyinchalik sekin asta uni jamoaviy o'yinlarga jalb etish mumkin. Bunda albatta bolani qiziqтира bilish muhim ahamiyatga ega. Bolada bir vaqtning o'zida ikkita sust funksiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yin va mashqlarda ishtirok etish tajribasi orttirilgandan so'ng, bir o'yinnning o'zida birvarakayiga uchta funksiyani ishlab chiqishga qaratilgan murakkab ish shakllariga o'tish mumkin. Yuqoridagi jadvalda u yoki bu funksiyalarni mashq qildirishga mo'ljallangan ba'zi o'yinlar nomlari keltirilgan. Har bir pedagog yoki psixolog o'z imkoniyatiga qarab, mashg'ulotning maqsadi va bosqichiga ko'ra ularni individual yoki guruhiiy tarzda qo'llashi mumkin.

Diqqat barqarorligini namoyon bo'lishi

- Diqqat barqarorligi va diqqatini bir joyga uzoq to'play olishi mavjud bo'lgan bolalar.
- Bir necha minutdan ortiq diqqatlarini saqlab tura olmaydilar.
- O'ylanmagan xatti-harakatlarni amalga oshiradilar va ko'pincha bu xatti - harakatlar jarohatlar bilan tugaydi.
- Doimo xaotik harakat qiladilar, yuguradilar, bir joyda o'tira olmaydilar.

Diqqat barqarorligi ta'minlash shart sharoitlar



Shunday qilib xulosa qilish mumkinki, diqqat barqarorligini taminlash va shakllantirishda psixokorreksion metodlarni individual yoki guruhliy tarzda o'tkazish yaxshi samara beradi.

Biz yuqorida ishlab chiqqan va tatbiq etgan metodikalardan bir nechtasini misol tariqasida keltirdik. (Mashqlardan ba'zi birlari ilovalarda keltirilgan).

3.2. Dastlabki tajriba natijalarini qayta ishlash.

Maktabgacha yosh davri bolalarining diqqat barqarorligini o'rganish uchun biz.-----
----- maktabgacha ta'lim muassasa
tarbiyalanuvchilari bilan tajribalar olibbordik. Quyida tajribalar natijalarini amaliy taxlillarini
keltiramiz.

1-jadval

Maktabgacha yosh davri bolalarining diqqat barqarorligini ta'minlash jarayoni.ning modeli

Dastlabki bosqich	Diqqat barqarorligini ta'minlash ko'nikmalarining mavjud emasligi	Bilimlar, mayllar, maqsadlar, hissiyotlar
Ikkinchi bosqich	Maktabgacha yosh davri bolalarining diqqati.	Diqqatning xususi yatlarini mavjudligi va amaldagi faoliyatining yo'llari
Uchinchi bosqich	' maktabgacha yosh davri bolalarida diqqat barqarorligini ta'minlanish jarayonining shakllangan h ko'nikmalari	Bilimlar, mayllar, usullar iashqi ta'sirlar.

Mazkur modelni shakllantirishda biz shaxsga yo'naltirilgan obrazli va mantqiy psixologik jarayonini tashkil etish sohasidagi nazariy yondashuvlarga tayandik. Chunki obola o'z diqqatini barqarorlashtirish davomida o'quv-biluv jarayonining sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu model tarbiyachilarda tarbiyalanuvchilarning diqqatini barqarorlashtirish ko'nikmalarini tizimli tarzda shakllantirish imkonini beradi. Chunki bu model o'ziga xos psixologik pedagogik xususiyatlarga ega. Jumladan:

1) ushbu model asosida bolalar diqqatini barqarorligini ta'minlashni jadal shakllantirish mumkin. Bu modelni qo'llash jarayonida tarbiyachilar bolalarning psixologik jarayonini o'ziga xos tashqi hamda ichki xususiyatlarini hisobga olishi kerak;

2) Maktabgacha yosh davri bolalarining diqqat barqarorligini ta'milash jarayonining modeli muayyan psixologik pedagogik maqsadga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi;

3) Maktabgacha yosh davri bolalarining diqqat barqarorligini ta'minlash komponentlari orasida muayyan izchillik mavjud. Bu esa, o'z navbatida bolalarda diqqat barqarorligini shakllantirishning tarkibiy qismlari bosqichma-bosqich shakllanib borishiga imkon beradi. Ushbu model yaxlit didaktik tizim sifatida o'zining maqsadi, mazmuni, tatbiq etilish jarayoni, o'quvchi faoliyatini tashkil etish vositalariga ega bo'lib, unda bola psixik jarayonning birinchi sub'ekti, tarbiyachi esa ikkinchi sub'ekti va boshqaruvchisi sifatida ishtirok etadi;

4) Bolalar diqqatini barqarorligini taminlash va shaklantirish modeli bir qator o'zaro bog'langan tarkibiy qismlardan tashkil topadi;

5) modelning xarakterli xususiyatlaridan yana biri uning dinamikligidadir. Ushbu model diqqat barqarorligini shakllantirish turli bosqichlarida ro'y beradigan o'zgarishlarning o'zaro bir-biriga singib ketishiga ko'maklashadi;

2-jadval

Nazorat va tajriba guruhlarining tajriba-sinovdan keyingi ko'rsatkichlari

№	Mezonlar	Tajriba guruhida – 18 tarbiyalanuvchi			Nazorat guruhida - 22 tarbiyalanuvchi.		
		1 ball	2 ball	3 ball	1 ball	2 ball	3 ball
1.	Diqqat barqarorligi bolalar tomonidan aniqlanganligi	3	7	9	10	7	5
2.	Diqqat barqarorligini shakllantirishi.	2	5	11	12	8	2
3.	Psixologik pedagogik ta'sirlarni aks ettirishi va ularga diqqatning yo'naltirishi.	5	5	8	9	8	5
4.	Bolalarning diqqatini yo'naltirishda tarqoqligini va barqarorligini orasidagi nomutanosiblikni ko'rsata olishi	5	5	8	12	5	5
5.	Diqqatini to'play olishi.	5	8	7	10	6	6
6.	Diqqatini yo'naltira olishi	7	8	9	11	9	2
	Jami	27	38	52	64	43	25
	O'rtachasi	4,3	6,2	8,4	10,4	7,1	4,1

Bu 2-jadvalda 1 ballik ko'rsatkich 2 savolga, 2 ballik ko'rsatkich 5 savolga va 3 ballik ko'rsatkich 6 savolga javob bergan bolalarni ifodalaydi. Agar biz buni foizlarda e'tirof etsak, tajriba-sinov yakunida mezonlar bo'yicha 1 ball oluvchi bolalar 4,7 foizdan 6 foizgacha kamayganini, 2 ball oluvchi bolalar 6,2 foizdan 8,4 foizgacha kamayganini va 3 ball oluvchi o'quvchilar 8,4 foizdan 10,8 foizgacha ortganini ko'ramiz. Qolgan mezonlar bo'yicha davom etsak, quyidagi jadvalda tajriba-sinov guruhidagi yutuqlarning guvohi bo'lamiz.

Jadvalda ifodalangan natijalar jamlanmasining o'rtacha ko'rsatkichi yordamida ularni matematik-statistik tahlil qilamiz.

3-jadval

Tajriba-sinov yakunida olingan natijalarning statistik tahlili

Sinflar	O'quvchilar soni	O'quvchilarning o'z faoliyatini baholash va tashxislash ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasi		
		3 ball	2 ball	1 ball
Tajriba	18	52	38	27
Nazorat	22	25	64	43

Jadvaldagi ko'rsatkichlardan matematik kutilish, tanlanma dispersiya va ishonchli chetlanishlar topiladi.

$\bar{X}$	$\bar{Y}$	D_m	D_n	Δ_m	Δ_n
2,5	1,6	0,28	0,5	0,02	0,03

Qo'lga kiritilgan materiallardan diqqat xususiyatlarining namoyon bo'lishi to'g'risida va diqqatda ustanovkaning roli haqida tegishli xulosa chiqariladi.

1- Topshiriq

Diqqatning ko'chishi, diqqatning kuchishi xususiyatini qora-qizil yordamida tekshirish.
Zarur material: qora-qizil jadval (qo'shimcha ilova qilingan varaqchaga qarang).

Qora rang satrdagi 1 dan 25 gacha va qizil rang satrdagi 1 dan 24 gacha bo'lgan raqamlar logik esda olib qololmaydigan qilib, tasodifi kombinatsiyalarga bo'lingan.

Tajribaning borishi. Sinaluvchiga dastlab 1-seriya sonor miqdori ortib boruvchi qora tus satrdagi 1 dan 25 gacha bo'lgan raqamlarni ko'rsatish taklif qilinadi. Bunga qancha vaqt ketganligi sekundomer yordamida aniqlanadi va sinaluvchining bergan javobi protokolga yozib boriladi. Keyin sinaluvchi sonlar miqdori kamayib boruvchi qizil rang satrdagi 1 dan 24 gacha bo'lgan raqamlarni o'qiydi. Yoz, ni'oyat sinaluvchiga qora Turkiston satrda sonlar miqdorining ortib, qizil rang satrda esa kamayib borishini navbatma-navbat ko'rsatish taklif qilinadi. Protokol yozib boruvchi ish 'arakteri va unga ketgan vaqtni 'amda yo'l qo'yilgan baozi xatolarni 'isobga olib boradi.

Topshiriqni ishlab chiqarish. Protokol yozib boruvchining yozuvi asosida uchala seriya topshiriqni bajarishga ketgan vaqt va yo'l qo'yilgan xatolar quyidagi jadvalga yoziladi.


ko'rsatkichlar	1-seriya	2-seriya	1-2- seriya	3-seriya
vaqt	3min	6 min	9 min	10 min.
xatolar				

3-seriyada, garchi 1 va 2- seriyadagi faoliyat turlari aynan bajarilgan bo'lsa-da, bunda sarflangan vaqt dastlabki ikki topshiriqni bajarishga ketgan vaqt miqdoriga teng emas. Har ikki vaqt miqdori orasidagi farq sinaluvchi diqqatining bir faoliyat turidagi ikkinchisiga ko'chishi uchun ketgan vaqtni ko'rsatadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek diqqat barqarorligini shakllantirish uchun bolalarning 30 nafarida psixokorreksion tadbirlar amalga oshirildi.

Psixokorreksion tadbirlardan so'ng Burdon metodikasi bo'yicha tekshiruvlar o'tkazildi hamda ular mazkur metodika bo'yicha bu bolalarning birlamchi natijalari bilan qiyosiy tarzda son va sifat jihatidan tahlil qilindi. Diqqatning barqarorlik xususiyati ko'rsatkichlari ham sezilarli darajada ijobiy tomonga o'zgargan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, diqqat barqarorligi dinamikasi korreksion tadbirlardan keyin bir maromda va deyarli sog'lom bolalar ko'rsatkichlariga yaqin.

Shuni ta'kidlash joizki, psixokorreksion tadbirlar davomida guruh qatnashchilaridan 7 nafarida diqqat barqarorligini shakllantirishda korreksiya qilish samara bermadi. Bu bolalarning 5 nafarida diqqatini yo'naltirishda beqarorlik ustunligi aniqlandi., 2 nafarida xatti harakatlarini nazorat qila olmaslik, serharakatchanlikning yuqori darajasi kuzatildi. Bu bolalarning ota - onalari bilan suhbat natijasida, shu narsa ma'lum bo'ldiki, oiladagi muhit yaxshi emas, ota va onaning, oiladagi boshqa a'zolarining mazkur bolalarga munosabatlari salbiy, ota-onalarda o'z farzandlari bilan muomalada sabr-toqat yetishmaydi, ular farzandlari bilan o'ta qo'pol munosabatda, ularning fikricha, "bu bola hech qachon odam bo'lmaydi". Bundan ko'rinib turibdiki, diqqat barqarorligini ta'minlashda faqatgina psixolog yordami va psixokorreksion tadbirlarning o'zi kifoya qilmaydi.



Korreksion guruh qatnashchilarining diqqat barqarorligi ko'rsatkichlari

Boalalarning diqqat barqarorligini ta'minlash ularning ijtimoiy guruxlar ta'siri va ulardan ayniqsa oila muxiti alohida rol o'ynaydi. Oiladagi ijobiy psixologik muhit, tinch totuvlik, ota-onalarning ma'lumot va bilim darajalari, ma'naviy saviyasi ham psixokorreksion tadbirlarning ajralmas qismi hisoblanadi

Xulosa qilishimiz mumkinki, diqqat barqarorligini ta'minlashda faqatgina bolalar bilan ishlashdan iborat bo'lib qolmasdan, ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari hamda pedagog-psixologlar bilan ham hamkorlikda ish olib borish, ularni bu jarayonga jalb etishni taqozo etadi.

Xulosa

Amalga oshirgan tadqiqotlarimiz, kuzatishlarimiz hamda tajriba-sinov ishlari natijalari asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Mavjud adabiyotlarning tahlili, amalga oshirgan kuzatishlarimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yosh davri bolalarining diqqat barqarorligini ta'minlash uchun maxsus usullar ishlab chiqish va korreksion mashqlarni takomillashtirish bugungi kunning o'z yechimini kutayotgan dolzarb psixologik muammolaridan biridir.

2. Maktabgacha yosh davri bolalarining diqqat barqarorligini shakllantirishga xizmat qiladigan nazariy bilimlar va amaliy tajribalar bilan izchil qurollanishlari zarurligini amaliy tajribalar yaqqol ko'rsatdi.

3. Falsafiy, pedagogik, psixologik adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yosh davri bolalarining diqqat barqarorligini shakllantirishga yo'naltirilgan muayyan psixologik va pedagogik tizim va o'quv jarayonining maqsadli yo'naltirilgan modelini ishlab chiqish zaruriyati mavjud.

4. Maktabgacha yosh davri bolalarining diqqat barqarorligini ta'minlash shakllantirishda ularda hosil bo'lgan umumiy ko'nikmalarining o'ziga xos xususiyatlariga va korreksion ishlarning to'g'ri tashkil etilganiga tayaniladi.

5. Maktabgacha yosh davri bolalarining diqqat barqarorligini ta'minlash va korreksiyalash ko'nikmalari muayyan psixologik tizimni tashkil etadi.

6. maktabgacha yosh davri bolalarining diqqat barqarorligini ta'minlash va korreksiyalash yaxlit tizim sifatida o'zining ichki qismlariga ega.

7. maktabgacha yosh davri bolalarining diqqat barqarorligini ta'minlash o'zaro aloqador komponentlarni tashkil etib, ular o'quv-biluv hamda mashg'ulotlardan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida bosqichma-bosqich rivojlantirilib boriladi.

TAVSIYALAR

1. Oliy o`quv yurtlarida bo`lajak o`qituvchilarini o`quvchilarning diqqat barqarorligini shakllantirish metodikasi bilan qurollantirishga erishish.

2 ko`nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan ta`limiy topshiriqlar to`plamini yaratish. Diqqat barqarorligini shakllantirish va korrektsiyalashning zamonaviy usullaridan amaliyotchi psixologlar faoliyati qo`llashni tashkil etish..

3. Muayyan tanlab olingan test topshiriqlari yordamida bolalarda diqqat barqarorligini shakllantirish va mustaxkamlash ko`nikmalarining bosqichma-bosqich takomillashuvini nazorat qilishni ta`minlash zarur..

4 ta`lim-tarbiya jarayonida bolalarning diqqatini nazorat qilish, ularning barqarorligini shakllantirish uchun doimiy olalar qiziqishlarini e`tiborga olgan xolda ish tashkil etish. Shuningdek, ko`nikmalarini shakllantirishga ko`maklashadigan metodik qo`llanma ishlab chiqish.

- Bola bilan hamkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun oldindan u bilan kelishib olish, aqliy harakat mazmunini qisqa, aniq va yaqqol tushuntirish joiz.

- Bolani rag`batlantirish yoki jazolashning me`yoriy tizimiga rioya qilish zarur.

- Bola bilan munosabatlarda ota-onalar ijobiy (pozitiv) modelga asoslanishlari maqsadga muvofiq. U muvaffaqiyatga erishganida, darhol maqtash, muvaffaqiyatlariga urg`u berish, unda o`z-o`ziga ishonch hissini barqarorlashtiradi.

- “Yo`q” va “mumkin emas” - degan inkor ma`nosini anglatuvchi so`zlarni takrorlash ko`lamini toraytirish darkor.

- Bola bilan xotirjam va yumshoq ohangda so`zlashish kerak.

- Bolaga ma`lum vaqt mobaynida bajariladigan topshiriqlarni berish, o`quvchi misol yoki masala yechimini topayotgan jarayonni uzluksiz ravishda kuzatish shart.

- Diqqatni to`plash bilan bog`liq mashqlarni bola bajarganda, uni rag`batlantirib turish maqsadga muvofiq ( masalan bo`yash, kubiklar bilan o`ynash, o`qish, dam olish mashqlari, harakatli o`yinlar).


- Aniq kun tartibiga rioya qilishlikka o`rgatish unda ongli intizomni shakllantiradi.

- Bola bilan muloqotga kirishish uning xulq-atvoridagi kamchiliklarni doimo hisobga olish ayni mudaodir.

- Pedagoglar va psixologlar bola u yoki bu faoliyatni amalga oshirayotganida, qisqa muddatga mo`ljallangan mashqlarni bajarish ya`ni, fizkultura daqiqalarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Intellektual faoliyatni amalga oshirganda ma`lum vaqt oralig`ida faqat bittagina topshiriq berish bilan cheklanish kerak.


“FARQINI TOP” MASHQI



**KUZDA BARGLAR QANDAY TUSHISHINI CHIZ VA RANGLAR BILAN BO'YAB
QO'Y**



POPELREYTER FIGURALARI
“ULARNI AJRAT” MASHQI



4- ilova

SONLARNI MA'LUM TARTIBDA JOYLASHTIRISH

Chapdagi jadvalda 1 dan 25 gacha bo'lgan 25 ta raqamlar joylashtirilgan.

3	17	1		4
10	6	25	5	13
24	20			22
19	12		4	16
2	18	3	1	5

**ULARNI O‘SIB BORISH TARTIBIDA O‘NG TOMONDAGI BO‘Sh JADVALGA
ChAP TOMONDAN BOSHLAB TO‘LDIRING.**

SONLARNI MA'LUM TARTIBDA JOYLASHTIRISH

Chapdagi jadvalda 1 dan 25 gacha bo'lgan 20 ta raqamlar joylashtirilgan.

3	17	21	8	4
10	6	15	25	13
24	20	1	9	22
19	12	7	14	16

**ULARNI O'SIB BORISH TARTIBIDA O'NG TOMONDAGI BO'Sh JADVALGA
ChAP TOMONDAN BOSHLAB TO'LDIRING.**

“DIQQAT TAQSIMLANISHI” MASHQI

Bu mashqlardagi asosiy prinsip: bolaga bir vaqtning o'zida ikkita har xil topshiriq beriladi. Topshiriqni bajarib bo'lingandan so'ng (10 yoki 15 daqiqadan so'ng) har bir topshiriq natijasi aniqlanadi.

«HAR BIR QO‘L UCHUN O‘ZIGA XOS ISH» MASHQI

1 daqiqa mobaynida bolalardan chap qo‘l vositada rasimli kitobni varaqlash so‘raladi (ularni eslab qolgan holda), o‘ng qo‘l bilan esa geometrik figuralar chizish yoki oddiy misollarni yechish kerak bo‘ladi. Bu mashqni matematika darslarida o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Uzbekiston buyuk kelajak sari. T., Uzbekiston, 1998.
2. Karimov I.A. "Ma'naviy yuksalish yo'lida". T., "O'zbekiston", 1999.
3. Karimov I. A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". T., "O'zbekiston", 1999.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.- 173 b.
5. 2 Abramova G.S. Praktikum po vozrastnoy psixologii. – M., 1998.- 87 s.
6. Аномальные дети. Хрестоматия по специальной педагогике и психологии/ Сост. В.Р.Брунов, В.И.Петроченко. – Красноярск, 2004. Ч.1. -169 s.
7. Anufriev A.F., Kostromina S.N. Kak preodolet trudnosti v obuchenii detey. Psixodiagnosticheskie tablitsy. Psixodiagnosticheskie metodiki. Korreksionnyye uprajneniya. – M., 2000. -104 c.
8. Astapov V.M. Vvedenie v defektologiyu s osnovami neyro i patopsixologii. – M., 1994. 90 s.
9. Badalyan L.O. Detskaya nevrologiya. – M., 1984.- 78 s.
10. Balashova Ye.Yu., Korsakova N.K., Mikadze Yu.V. Neuspevayushie deti. –M., 1997. -120 s.
11. Bryazgunov I.P., Kasatikova Ye.V. Neposedlivyy rebenok, ili vse o giperaktivnykh detyax. – M., 2001. – 78 s.
12. Burlachuk L.F., Morozov S.M. Slovar-spravochnik po psixodiagnostike. – SPb.: Piter Kom, 1999 (Seriya «Mastera psixologii»).
13. Buyanov M.I. Besedy o detskoy psixiatrii. – M., 1992.- 255 s.
14. Vallon A. Psixicheskoe razvitie rebenka. – M.: Prosveshchenie, 1967.-80 s.
15. Venger A.L. Struktura psixologicheskogo sindroma// Voprosy psixologii. – M., 1994.- № 4.- S.82-92.
16. Vygotskiy L.S. Problemy razvitiya psixiki// Sobr. soch. V 6-ti t.– M., 1983. T.3.- S.144-146, 207,293.
17. Vygotskiy L.S. Diagnostika razvitiya i pedologicheskaya klinika trudnogo detstva// Sobr. soch. V 6-ti t. – M., 1983. T. 5.- S. 257-321.
18. Vygotskiy L.S. Osnovy defektologii. – M. 1984.- 424 s.
19. Vygotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya. – M., 1997. – 234 s.
20. Gamezo M.V., Gerasimova V.S., Gorelova G.G., Orlova L.M. Vozrastnaya psixologiya: lichnost ot molodosti do starosti. –M.: Neoosfera, 1999. - 272 s.
21. Garbuzov V. I. Prakticheskaya psixoterapiya. – SPb., 1994.- 196 s.
22. Gasparova Ye.M. «Shustriki» i «Myamliki» // Doshkolnoe vospitanie. – M., 1990.- № 4.- S.90-98.

23. Gippenereyter Yu.B. Obshchatsya s rebenkom. Kak? – M.: CheRO, 2005. - 240 s.
24. Godfrua J. Chto takoe psixologiya. V 2-x t./ Per. s frans. – M.: Mir, 1992. – 240 s.
25. Gribanov A.V., Volokitina T.V. Sindrom defitsita vnimaniya s giperaktivnostyu. – M.: Akademicheskij proekt, 2004.- 176 s.
26. Detskaya psixologiya. Metod. ukazaniya/ Pod red. R.P.Yefimkinoy. – Novosibirsk, 1995.- 29 s.
27. Detskaya prakticheskaya psixologiya/ Pod red. Marsinkovskoy. – M., 2006.- 234 s.
28. Dobson A. Neposlushnyy rebenok. – M.: Penaty-T-Okko, 1992.- S.131-149.
29. Dormashev Yu.B., Romanov V.Ya. Psixologiya vnimaniya. Uchebnik. – M.: Flinta, 2002. – 68 s.
30. Drobinskaya O.A. Sindrom giperaktivnosti s defitsitom vnimaniya// Defektologiya. – M., 1996. - № 5. – S. 22-29.
31. Drujinin V.N. Psixologiya semi. – SPb: Piter, 2005.- 176 s.
32. Yekimova V.I. Sindrom «uchebnoy neuspeshnosti»// Jurnal prakticheskogo psixologa. – M., 1998.- № 3.- S.3-9.
33. 37. Yeremeeva V.D. Tipy lateralnosti u detey i neyrofiziologicheskie osnovy individualnoy obuchaemosti// Voprosy psixologii. – M., 1990.- № 1- S.128.
34. Zavadenko N.N. Kak ponyat rebenka: deti s giperaktivnostyu i defitsitom vnimaniya. – M.: Shkola-Press, 2000.- 112 s.
35. Zavadenko N.N. Diagnostika i differentsialnyy diagnostika sindroma defitsita vnimaniya s giperaktivnostyu u detey// Shkolnyy psixolog. – M., 2000.- № 4.- S.2-6.
36. Zalomixina I.Yu. Sindrom defitsita vnimaniya s giperaktivnostyu u detey// Logoped. – M., 2007.- № 3.- S.33-39.
37. Zaporozets A.V. Osobennosti psixologii detey rannego i shkolnogo vozrasta. – M., 1985. – 146 s.
38. Zaporozets L.V. Izbrannyye psixologicheskie trudy. – M., 1986. – 198 s.
39. Zaxarov A.I. Kak predupredit otkloneniya v povedenii rebenka. – M., 1980. – 126 s.
40. Zinkevich-Evstigneeva T.D., Nisnevich L.A. Kak pomoch "osobomu" rebenku. – SPb.: Sfera, 1998. - 96 s.
41. Zmanovskaya Ye.V. Deviantologiya (psixologiya otklonyayuyemogo povedeniya). – M., 2003. – 128 s.
42. Zotkina Ye.A. Spetsialnaya psixologiya. – Samara, 2001. – 130 s.

43. Игры и зanyatiya s detmi rannego vozrasta, imeyущimi otkloneniya v psixofizicheskom razvitii. Kniga dlya pedagogov/ Pod. red. Ye.A.Strebelevoy. – M.: Poligraf-servis, 2002. - 128 s.
44. Kazakov S.Ye. Osobennosti kliniki nevrozov u levorukix detey: Avtoref. dis. ... kand. med. nauk. – M., 1987.- 20 s.
45. Karvasarskiy B.D. Psixoterapevticheskaya ensiklopediya – SPb.: Piter Kom, 1998. (Seriya «Mastera psixologii»). – 450 s.
46. . Kolominskiy Ya.L., Panko Ye.A., Inumnov I.A. Psixicheskoe razvitie detey v norme i patologii. – SPb.: Piter, 2004.- 480 s.
47. Korrektsionnaya pedagogika v nachalnom obrazovanii. Ucheb. posobie dlya stud. sred. ucheb. zavedeniy/ G.F.Kumarina, M.E.Vayner, Yu.N.Vyunkova. – M.: Akademiya, 2001.- 320 s.
48. Korsakova N.K., Mikadze Yu.V., Balashova Ye.Yu. Neuspevayущie deti: neyropsixologicheskaya diagnostika trudnostey v obuchenii mladshix shkolnikov. – M.: Ros.ped.agentstvo, 1987. - 125 s.
49. Kostina L.M. Igrovaya terapiya s trevojnymi detmi. – SPb.: Rech, 2005.- 160 s.
50. Abduraxmonov F. “Odamlar bilan qanday muloqotga kirishish va yondoshish kerak”. T., “O‘qituvchi”, 1996.
51. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. M., Aspekt press, 1999.
52. Badmaev B.S. Psixologiya: kak yee izuchit i usvoit. M., Uchebnaya literatura, 1997.
53. Davletshin M. va b. Psixologiya: Izoxli lugat. T., Ukituvchi, 1998.
54. Karimov V. Ijtimoiy psixologiya. T., «Ukituvchi», 1994.
55. Karimov V., Akromova F. Psixologiya. T, 2000.
56. G‘oziev E. Intelekt psixologiyasi. T, «O‘qituvchi», 1990.
57. G‘oziev E. Psixologiya. T, «O‘qituvchi», 1994.
58. G‘oziev E. Tafakkur psixologiyasi. T, «O‘qituvchi», 1990.
59. Xalilov M.X. Bilish jarayonlari psixologiyasi. SamDU nashri, 1999.
60. Nemov R. Prakticheskaya psixologiya. M., Vldos, 1998.